

جدید

2025-yil 6-iyun
№ 23(75)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishdada birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

QURBON HAYITINGIZ
MUBORAK BO'LSIN!



O'ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni, barcha mo'min-musulmon yurtdoshlarimizni, butun xalqimizni ulug' va mo'tabar ayyom – Qurbon hayiti bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etib, o'zimizning yuksak hurmatim va e'zgu tilaklarimni bildirishdan g'oyat mamnunman.

Jamiki islom ummati uchun qadri bo'lgan ushbu shukuhli bayram – Iyd al-Adhoni el-yurtimiz bilan birgalikda tinch va osoyishta muhitda kutib olayotganimiz uchun, avvalo, mehribon va qudratli Alloh taolaga behisob shukronalar aytamiz.

Hech shubhasiz, keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda ijtimoiy, xalqchil davlat barpo etish, uning ma'naviy asoslarini mustahkamlash va ta'sirchanligini oshirishda muqaddas islom dini, uning asosiy bayramlaridan biri bo'lgan Qurbon hayiti ham muhim rol o'ynamoqda.

Ayniqsa, bu bayramning insonparvarlik, ahillik, saxovat va oliyanoblik kabi fazilatlarini yurtimizda **“Inson qadri uchun, inson baxti uchun”** degan e'zgu g'oya asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga uyg'un va hamohang bo'lib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, keksalar, yoshlar va xotin-qizlar haqida alohida g'amxo'rlik ko'rsatish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlarimiz samarasini oshirishga xizmat qilayotganini alohida ta'kidlash o'rindir.

Aziz do'stlar! Bugungi kunda mamlakatimizda turli millatlar va diniy konfessiyalar o'rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlash, vijdon erkinligini ta'minlash, diniy-ma'rifiy merosimizni asrab-avaylash, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida

tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, islom dini-niing e'zgu tamoyillarini chuqur o'rganish, buyuk tariximiz va madaniyatimiz durdonalarini, mashhur allomalarimizning boy merosini to'plash va keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlash lozim. Jumladan, ko'hna Sharq mo'jizasi – Samarqand shahri 2025-yilda islom madaniyati poytaxti, deb e'lon qilindi, ulug' vatandoshimiz Imom Moturidiyning 1155 yillik tavallud sanasi yurtimiz bo'ylab keng nishonlanmoqda, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari qatoriga, shu yil Buxoro shahrida o'z faoliyatini boshlaydigan Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi ham qo'shildi.

Poytaxtimiz Toshkent shahrida bunyod etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy-ma'naviy yo'nalishdagi ulkan va noyob loyiha sifatida el-yurtimiz va xalqaro jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu muazzam maskan ko'p ming yillik qadimiy tariximiz, boy va betakror milliy madaniyatimizning yorqin timsoli sifatida Yangi O'zbekiston hayotidagi g'oyat muhim voqeaga aylanadi, deb ishonaman.

Hurmatli yurtdoshlar!

Shu saodatli kunlarda 15 ming nafar vatandoshimiz muqaddas haj ziyoratini ado etmoqda. Ezgu duo va niyatlar ijobat bo'ladigan mana shunday munavvar lahzalarda ularni ham Qurbon hayiti bilan samimiy qutlab, Yaratgandan yurtimizga sog'omon qaytib kelishlarini so'raymiz.

Umid qilamizki, muhtaram hojilarimiz jamiyatimizda birdamlik, oila va mahallalarimizda mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarimiz

tarbiyasini kuchaytirish, ularni ilm-ma'rifatga, zamonaviy kasb-hunarlarni egallashga, Vatan himoyachisi bo'lishga targ'ib etish, muhtoj insonlarga ko'mak berishda alohida ibrat va namuna ko'rsatadilar.

Qalblarimiz quvonchga to'lgan ushbu fayzli kunlarda xorijiy davlatlarda bo'lib turgan vatandoshlarimizni ham bugungi ulug' ayyom bilan chin dildan qutlab, ularga sog'lik-omonlik, baxt va omad tilaymiz.

Jahonning uzoq-yaqin o'lkalaridagi musulmon ummatini ham qizg'in tabriklab, ularning xalqlari va mamlakatlari-riga tinchlik, ravnaq va farovonlik tilab qolamiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Hozirgi kunda dunyo naqadar murakkab va tahlikali bo'lib borayotganini barchamiz ko'rib turibmiz. Bunday keskin sharoitda yurtimizda tinchlik, o'zaro hurmat va totuvlik muhitini saqlab, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib ko'zlagan yuksak maqsadlarimizga yeta olamiz.

Albatta, o'z tarixida ne-ne sinov bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga tinchlik-xotirjamlik, sihat-salomatlik, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Bu yo'lda el-yurtimizga mansub mehr-oqibat, o'zaro birlik va jipslik biz uchun beqiyos kuch-qudrat manbasi bo'lib xizmat qiladi, deb ishonaman.

Siz, azizlarni muqaddas Qurbon hayiti bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga tinchlik-xotirjamlik, sihat-salomatlik, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Qutlug' ayyom barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

ILM YO'LI



TAFAKKUR HAM KOINOT

QADAR CHEKSIZDIR

Hammamiz xayolan bir marta bo'lsa ham koinotga oid azaliy jumboqqa javob izlaganmiz, shunday emasmi? Eng kamida O'ning narigi tarafi-yu olamning cheksizligini o'ylab boshimiz qotgan. Bu o'ylamlarning aksariyati katta ilmiy tahlil bilan beriladigan javobni talab qilsa, ayrimlari haqida taxayyulning tizginini ozod qo'yib gapirishga to'g'ri keladi. Hamkasbimiz Shahriyor Shavkat bilan birga ana shu kabi fazoviy masalalar bo'yicha izlanishlar olib borayotgan taniqli astrofizik, fizika-matematika fanlari doktori, akademik Bobomurod AHMEDOVning suhbatiga oshiqdik.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutida antiqa buyumlar, jahoniy e'tiroflar matni tushirilgan tashakkurnomalar, dunyoning turli tillarida bitilgan qalindan qalin kitoblar taxlangan shinam kabinetda kechgan gurgumizni u kishi ta'lim va ilm integratsiyasidan boshladi: “O'qitishda yangi texnologiyalarga intilish, innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda, albatta, katta ahamiyatga ega. Biroq pedagogning ilm bilan mashg'ul bo'lishi undanda muhim. Bu orqali o'qituvchi talabalarga

eng so'nggi bilimlarni yetkazadi va ularga mustaqil fikrlashni o'rgatadi”.

Bobomurod Ahmedov zamonaviy texnologiyalardan, kerak bo'lsa “Zed” avlodidan ham faolroq, mantiqliroq va unumli foydalanadigan olim. Uning bu boradagi fikrlari ham juda qiziq. Ta'kidlashicha, bugunning odami, ayniqsa, ziyoli inson to'rtta tilni bilishi kerak. Birinchisi – o'z ona tili. Kishi ona tilida fikrlaydi, tush ko'radi, ijod qiladi. Shunday ekan, o'zini to'liq namoyon qilishida ona tilini mukammal bilishning ahamiyati beqiyos. Ikkinchisi – ilm-fan tili. Buni bilish, o'rganish, tushuna olish kerak. Bu ham muntazam shug'ullanishni talab etadi. Uchinchisi – chet tili. Agar olim chet tillarini bilmasa, butun dunyodan bexabar qoladi. Erishgan natijalarini ham dunyoga ko'rsata olmaydi. Shuning uchun imkon qadar ko'proq xorijiy tillarni egallash kerak. Nihoyat, to'rtinchisi – dasturlash tili.

– Qanday qilib buni o'rganmay, zamonasini anglamay turib kishi olimman deyishi mumkin? Dasturlash tilini bilmagan olim uchun kelajak yo'q! Yana bir gap. Eynshteyn, deylik, bir quti yog'oz sarflab, Nobel mukofotini qo'lga kiritgan edi.

(Davomi 2-sahifada.) ➔

MARD ASKARGA SOVG'A

“ASKARLARI BOTIR EL QUDRATLI BO'LUR”

So'nggi yillarda mamlakatimizda “Xalq va armiya – bir tan-u bir jon” degan e'zgu g'oya hayotimiz mezoniga aylandi. Shu tamoyil asosida Qurolli Kuchlarimizning qiyofasi tubdan yangilanib, u nafaqat himoya kuchlari, balki vatanparvarlik va ma'naviy kamolot ramzi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Davlatimiz Rahbari, Oliy Bosh Qo'mondon ta'kidlaganidek, “Xalqimiz mard va jasur harbiylarimiz timso-lida Vatanni himoya qilish-dek dunyodagi eng ulug' ishni sharafla ado etib, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari buyuk ajdodlarimizning shonli an'analari munosib davom ettirib kelayotgan Ona Yurtimizning chinakam qalqon-larini ko'radi”.



Ma'lumimgizkim, 2023-yil-dan boshlab O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Mudofaa vazirligi hamda boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda “Mard askarga sovg'a” turkumida ixcham kitoblarni nashr etish yo'lga qo'yildi. Ikki yil ichida 18 nomdagi kitob nashr qilinib, Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy xizmatchilar qo'lga yetib bordi. Shunga ko'ra, 2025-yilda yana 7 nomdagi

she'riy va nasriy kitobchalar chop etildi.

Kuni kecha Qurolli Kuchlar akademiyasida ushbu turkumda yangi chop etilgan kitoblar taqdimoti o'tkazildi. Gazetamizning 4-sahifasida mazkur to'plamlardan namunalarni e'tiboringizga havola etyapmiz.

Ma'mura ZOHIDOVA,
O'zbekiston
Yozuvchilar uyushmasi
harbiy-vatanparvarlik
bo'limi boshlig'i

UYG'OQ XOTIRA



Katta-yu kichik bu insonni “Opa” derdi. Shu bir so'zda samimiyat, hurmat, e'tirof bor edi. Xorazmda onani “opa” deyishlarini eslatsak, bu atamaning qadri nechog'li ekanligini anglashimiz oson bo'ladi.

Katta yoshdagi kishilar “qizim” yoki “Shakarjon” deyishar, ammo biror fuqaro u insonga rasman “Shakarjon Yulupovna” tarzida murojaat qilganini eslay olmayman.

Bu darajada hurmatga, e'tirofga sazovor bo'lish hammaga ham nasib qilavermaydi.

OPA

O'tgan asrning elliginch yillari oxiri – oltmishinchi yillarda yarim xaroba qishloqda tug'ilib o'sgan, mushtdek boshi bilan onasi qatida yaqin ko'makchi bo'lgan, kolxozning yil-o'n ikki oy davom qiladigan sermashaqqat mehnatida pishgan, tunlari charchoqni yengib, qorachiroq yorug'ida dars tayyorlash, kitob o'qishga vaqt topa olgan, tinib-tinchimas fe'li boshqalarda havas uyg'otgan qizaloq edi.

(Davomi 6-sahifada.) ➔

TARIX VA TAQDIR

ALJIR

Aybsiz ayollar
qamoqxonasi

O'tgan asrning 30-yillarida avj olgan keng qamrovli siyosiy ta'qiblar – tarixda “Katta qirg'in” nomi bilan qolgan davr – nafaqat jamiyatning siyosiy, intellektual va diniy elitasi, balki oddiy fuqarolar, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar taqdirida ham chuqur, qayg'uli iz qoldirdi. Aksar ayollar asossiz bo'htonlar iskanjasida “xalq dushmani”, “sotqin”ga chiqarilgan yaqinlari ortidan aybsiz aybdorga aylanib, turli xorlig-u xo'rliklarga giriftor etilgan.



(Davomi 7-sahifada.) ➔



Boshlanishi 1-sahifada.

Bugun Amerika Qo'shma Shtatlari James Webb kosmik teleskopi uchun 10 milliard dollar xarajat qildi. Hali u Nobelga loyiq ko'riladimi, yo'qmi, noma'lum. Demak, endi olimlik zamonaviy ilmlarning katta bilimdoni bo'lish bilan birga, ulkan sarmoya talab qiladi. Darvoqe, fan kibrl, injiq va go'zal ayolga o'xshaydi. U xiyonatni kechirmaydi. Unga umringni to'la-to'kis bag'ishlashing shart.

Shu payt Shahriyor qiziq bir savol berib qoldi:

– Biz jahon aholisining 0,5 foizini tashkil qilarkanmiz. Dunyodagi ilmiy yangiliklarning, ixtirolar, innovatsiyalar va yangi ishlanmalarning ham shuncha foizini tashkil qila olaypmizmi?

– Dunyodagi ilmiy yangiliklar, ixtirolar va innovatsiyalardagi ulushimiz bu raqamga nisbatan, afsuski, ayni paytda hali ancha past, – dedi domla bosh chayqagancha. – Jahondagi kashfiyotlar, patent arizalarining 0,1 foizdan ham kamrog'iga ega chiqaypmiz, xolos. Ilmiy maqolalar borasida ham ahvol shu. Biroq quvonarli holat ham bor. Masalan, Web of Science ma'lumotlar bazasiga har yili taxminan 3-4 millionga yaqin ilmiy maqola qo'shilsa, so'nggi yillarda O'zbekistonning bu boradagi ulushi barqaror o'sishni namoyon etyapti. Shunday ekan, ilmiy tadqiqotlar soni va sifatini oshirishimiz, yangi ilmiy jurnallar nashr qilib, anjumanlarni yo'lga qo'yishimiz, yuqori saviyadagi tadqiqotchilar safini kengaytirishimiz zarur.

Bu gaplarni tinglab turib, Xitoy Oyda atom elektr stansiyasini ishga tushirishni ko'zlayotgani haqidagi xabarlar yodimizga tushdi. Domladan ushbu loyihada o'zbek astrofiziklari ishtiroki qanday bo'lishi mumkinligi haqida so'radim.

– Chindan, bu voqea insoniyatning Oyni o'zlashtirishida yangi davrni boshlab berishi mumkin. Bu kabi loyihalarda ishtirok etish uchun yuqori malakaga ega astrofiziklar, muhandislar va ilmiy-tadqiqot institutlari kerak bo'ladi. O'zbekistonda ham astronomiya va astrofizika sohasida an'anaviy ilmiy maktablar mavjud. Dunyo darajasidagi bunday yirik loyihalarda qatnashishning bir nechta shartlari bor. Masalan, ilmiy tadqiqotlar ko'lam, xalqaro hamkorlikdagi tajriba, texnik infratuzilma va moliyaviy ta'minot darajasi kabi jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Agar bizning ilmiy muassasalarimiz xalqaro standartlarga muvofiq tadqiqot loyihalarida ishtirokini mintazam oshirib borsa, ishimiz olg'a siljiydi. Shuningdek, yangi avlod olimlarimizning xorijda tahsil olib qaytishi va dunyo bilan hamkorlik loyihalarida faol qatnashishi uchun imkoniyatlarni kengaytirishda davom etsak, kelgusida o'zbek astrofiziklari bundan-da ko'lamli kosmik dasturlarda munosib ishtirok etishi hech gap emas.

Akademikning ta'kidicha, tarixda Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan yurtimiz Yevropa va Sharqni bog'lovchi ko'prikmiz vazifasini bajargan. Shu boisi dunyo taraqqiyotidan, so'nggi kashfiyotlar, olamshumul ixtirolardan bevosita xabar topib turilgan. Hozirgi kunda Xitoy iqtisodiy jihatdan kuchli davlatga aylanib bo'ldi. Yevropa esa ularning mahsulotiga asosiy xaridor sanaladi. Biz yana yo'l ustida, chorrahadami. Shu jihatdan Xitoyning rivojlanishi bizning taraqqiyotimizga ham asta-sekin ta'sirini ko'rsata boradi. Oxirgi yillarda ta'limga mobillik oshgani bois ko'plab tadqiqotchilarimiz Xitoyda o'qib kelishmoqda. Ular juda iqtidorli. Buni xitoyliklar ham ko'rib-bilib turibdi. Demak, bunday loyihalarda ishtirok etishimiz ehtimoli juda yuqori.

– O'zi Oyda atom elektrostansiyasini qurishdan qanday maqsad ko'zlangani? Qandaysi bitdi ham deylik, bu energiya nimaga ishlatiladi? – qiziqsinadi Shahriyor.

– Oydan Yerda bo'lmagan mineral va foydali qazilmalar olish mumkin. Elektr stansiyasi shuning uchun kerak, – deydi olim.

Suhbatimiz Oy masalasidan Quyosh mavzusiga ko'chadi. Kun yangiliklarida bot-bot magnit bo'ronlari tarqalayotgani, uning inson salomatligiga salbiy ta'siri haqida mintazam xabarlar kelib turibdi. Iqlimimiz eng issiq hafta, eng issiq oy rekordlarini tez-tez yangilab boryapti. Astrofizik olimdan "Quyoshdagi portlashlar, yildan yilga Yerning qizib borishi qachondir



me'yoriga keladimi yoki insoniyat global isish xavfida yashashga mahkummi?", deb so'radik. U kishining javobi bizni ham xavotirga soldi, ham xotirjam qildi. Aytishicha, Quyosh o'z faollik siklini har 11 yilda o'zgartiradi. Ya'ni, faollik bir ortib, keyin pasayadi. Lekin Quyoshning umumiy isishi astronomik ko'lamda milliardlab yillar davomida kechadigan, inson ilg'ay olmaydigan darajada sekin

– Albatta, sayohat va ilmiy mobillik – inson tafakkuri va dunyoqarashini kengaytiruvchi eng ta'sirli omillardan biri. Men xorijiy safarlarim chog'ida turli mamlakatlardagi fan muhitini ko'rib, xilma-xil tajribalarga guvoh bo'ldim. Bu nafaqat ilmiy qarashlarimni, balki inson sifatida fikrlash tarzimni ham o'zgartirdi. Sayohat odamzodni yangi madaniyat, yangi g'oyalar bilan yuzlashtiradi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda ilm-fanga qaratilgan e'tiborning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi Astronomiya instituti yoshlariga ham keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Tarixan bu fanning yuragi bo'lgan O'zbekiston zaminida zamonaviy astronomiya va astrofizikaning rivojlanishida yoshlarning hissasi ortib borayotgani quvonarli hol, albatta. Umid qilamizki, bunday iste'dodli olim va



jarayon sanaladi. Shunday ekan, bugungi global isish muammosi Quyosh faolligi bilan emas, asosan Yerdagi antropogen omillar – ya'ni inson faoliyati natijasida atmosferadagi issiqlik effekti gazlar (karbon va metan) miqdorining ortishi bilan bog'liq. Sodda qilib aytganda, Quyoshdan kelgan energiyaning bir foizdan kamrog'i yerda qolib, qolgani akslanib, qaytib ko'tariladi. Agar yer atrofidagi zararli gazlar miqdori oshib ketsa, o'sha energiya qaytib ketolmaydi va natijada iqlimning keskin isishiga sabab bo'ladi.

– Aytinch-chi, astrofizika va relyativistik fizika sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar orqali energiya inqirozi muammolariga yechim topish mumkinmi?

– Albatta, ushbu yo'nalishlardagi izlanishlar orqali energiya tanqisligi muammolariga yangi yechimlar taklif qilish mumkin. Masalan, koinotdagi "qora tuynuk"lar va neytron yulduzlardagi ulkan energiya manbalariga oid tadqiqotlar yoki yadro sintezi kabi jarayonlarni chuqur o'rganish kelajakda yangi, samarali va ekologik toza energiya turlarini yaratishga ilhom berishi ehtimoldan xoli emas. Shuningdek, relyativistik zarra tezlatkichlar texnologiyasi ham yuqori samarali energiya manbalari va yangi materiallar ishlab chiqish uchun yo'l ochishi mumkin.

Bobomurod Ahmedov rivojlangan mamlakatlar bilan mintazam ilmiy hamkorlik qilib kelayotgan izlanuvchan olimlardan. U juda ko'p davlatlarning ilm ahli bilan doimiy muloqotda, tafakkurni taraqqiyot yo'lga solgan fidoyi olimlarimizdan biri. O'rni kelganda u kishidan sayohatning ahamiyati haqida so'radik. Prezidentimiz tashabbusi bilan har oyning bir shanba va yakshanbasini oila va mehnat jamoasi bilan sayohatga chiqish kuni deb belgilangani zamirida qanday hikmat ko'rayotganiga qiziqdik.

Bu esa toqat, bag'rikenglik fazilatlarini va yangilikka ochiqlikni shakllantiradi. Hurmatli Prezidentimizning muayyan bir kunni sayohatga yo'naltirish tashabbusi – shunchaki dam olish emas, balki jamiyatda ijtimoiy birdamlik, madaniy ong, vatanparvarlik hissini oshirishga qaratilgan juda nozik va o'rinni tashabbusdir. Oilaviy sayohat orqali inson tabiatga yaqinlashadi, o'z yurtini qaytadan kashf etadi, mehnat jamoalari esa yaqinroq va jipsroq bo'lib boradi. Qisqasi, sayohat – bu jismoniy harakat emas, balki ruhiy va ma'naviy o'sish yo'lidir.

XXI asrga kelib axborot texnologiyalari rivojlanishi va o'zaro axborot almashinish sur'atining keskin oshishi ilm-fan rivojida ma'lum bir davlat miqyosidagi chegaralarini yo'qqa chiqardi, – deydi domla. – Xususan, O'zbekistonda astronomiya fanini o'rganish, shu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun tarixiy va noyob astrofizik sharoit mavjud. Shunga qaramay, fundamental astronomiya va astrofizika sohasining yuksalishi, xalqaro aloqalarning rivojlanishi, ularning sifat nuqtayi nazaridan yangi bosqichga chiqishi o'ta muhim omildir.

Shundan so'ng domla faoliyat ko'rsatayotgan Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutiga yo'l oldik.

– Bizning bo'limimizda asosan qirg yoshgacha bo'lgan yosh olim va tadqiqotchilar yig'ilgan, – deydi u kishi. – Ular ko'plab xalqaro ilmiy loyihalarda faol ishtirok etib kelishmoqda. Bu yerda ilmiy izlanish bilan shug'ullangan yosh olim, hozirda Manxetten universiteti professori F.Fatoyev AQShning turli nufuzli universitetlarida faoliyat olib bordi, Florida davlat universitetida ilmiy ishini yoqladi. U neytron yulduzlarning ichki strukturasi o'rganish borasida yaxshi natijalarga erishmoqda. Yana bir yosh olimimiz Y.Abdukamolov Kaliforniya texnologik institutida kompakt obyektarning o'zaro to'qnashishi natijasida hosil bo'luvchi gravitatsion dolg'alarning to'liq shakllari bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Bunday ibratli misollarni yana davom ettirishim mumkin. Bizning iqtidorli va intiluvchan yosh olimlarimiz AQSh, Germaniya, Xitoy, Hindiston, Chexiya va boshqa ko'plab rivojlangan davlatlarda samarali faoliyat ko'rsatish bilan birga, nufuzli xalqaro grantlarga sazovor bo'lishmoqda.

mutaxassislarimiz Mirzo Ulug'bek izidan borib, O'zbekiston nomini dunyoga yanada kengroq tanitishadi.

Bobomurod Ahmedov yaqin o'n yillikda dunyoda va mamlakatimizda astrofizika sohasida qanday ilmiy yutuqlar kutilayotgani haqidagi savolimizga puxta tahlil bilan, faktlar asosida javob berdi:

– Yaqin yillarda qorong'i modda va qorong'i energiya tabiati haqida aniq ma'lumotlar olinishi kutilmoqda. Bugun James Webb teleskopi va Euclid missiyasi orqali olinayotgan ma'lumotlar bu yo'nalishda jiddiy ildamlashni ta'minlayapti. Istiqbolda gravitatsion to'liqlarning yangi manbalari aniqlanib, LIGO va Virgo detektorlari vositasida "qora o'ra"lar va neytron yulduzlarning to'qnashuvlarini kuzatish orqali olam haqidagi tasavvurimiz yanada kengayadi. Ekzosayyoralarda hayot belgilari (biomarkerlar)ni izlash borasida ham katta muvaffaqiyatlar kutib turibdi. Chunki James Webb va PLATO kabi missiyalar Yerga o'xshash sayyoralarda atmosfera tahlili orqali hayot ehtimolini baholash imkonini beradi. Quyosh va yulduzlardagi magnetizm va portlashlarni tushunish esa inson hayotiga ta'sir ko'rsatayotgan kosmik xavflar prognozini yaxshilashga xizmat qiladi.

"Qora tuynuk"larga oid yangi nazariya va kuzatuvlar borasida ham inqilobiy yangiliklarga guvoh bo'lishimiz, O'zbekiston ushbu jarayonlarda xalqaro teleskop tarmoqlariga qo'shilishi mumkin. Masalan, Maydanak astronomik observatoriyasi o'ta muhim kuzatuvlarning ma'lum bir qismini monitoring qilishda faol ishtirok etadi. Maxsus yoshlar dasturlari orqali xalqaro astrofizika tadqiqot markazlari bilan stajirovkalar va akademik mobillik yo'lga qo'yiladi. Big Data va Machine learning texnologiyalari orqali kosmik ma'lumotlarni qayta ishlash sohasida kadrlar yetishtiriladi. Biz nufuzli xalqaro grant va dasturlarda, qo'shma loyihalarda ham faol ishtirok etishni rejalashtirganimiz.

Xullas, akademik Bobomurod Ahmedov bilan xayrlashib, ortga qaytarkanmiz, u kishining koinot ilimga oid fikrlari mohiyatini anglash uchun atroflicha fikr yuritish zarurligiga amin bo'ldik. Zero, tafakkurning chegarasi ham koinot qadar cheksizdir.

Shavkat DO'STMUHAMMAD yozib oldi.

OYDINLAR

TARIX ZALVORINI GARDANGA ORTIB

Tarixiy hujjatlar bilan ishlash jarayonida mislsiz saboq olasiz. Birini o'qib, dahshatga tushasiz. Boshqa biridan ko'nglingizga nur kiradi. Har ikki tur hujjat ham haqiqat uchun xizmat qilishi kerak...

Gardaniga jadid bobolar tortgan mashaqqatlar, ular qoldirgan boy merosni haqqoniy yoritishdek zalvorli vazifani olgani uchunmi, gavdasi xiyol oldga egilgan bu inson tarix haqida so'zlar ekan, yuzida allaqanday shiddat zohir bo'ladi, yelkalari kengayib, xayolchan ko'zlarida jangchi nigohi akslanadi. San'atshunos, muzeysunos olim va madaniyat xodimi Sirojiddin Ahmadga ilk duch kelgan odam ko'z oldida uning chehrasi shunday qoladi. Olimning ma'naviy qiyofasi esa uning asarlari, tadqiqotlari va maqolalarida o'z aksini topadi.



Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida olim bilan o'tgan ilmiy-ma'rifiy uchrashuvda ayni shu haqda alohida to'xtalib o'tildi.


"Sirojiddin Ahmad hayotda qanchalik sipo bo'lsa, ilmiy olamda shunchalik jangovar qiyofada namoyon bo'ladi, – deydi muzey direktori Jabbor Eshonqulov. – U o'z haqiqatlarini, o'z tadqiqotlarini himoya qilishni uddalay oladigan, bunga doim tayyor bo'lgan olim. Ustozning hali ilmiy jamoatchilikka ochilmagan ko'plab qirralari ham borki, kamtarin olim o'z tadqiqot yo'nalishi bo'lgan jadid davri manbalariga oid fikrlarini aniq bayon qiladi. Holbuki, olimning fan tarixining boshqa muhim jabhalariga oid noyob manba va xulosalarga ega ekaniga bir necha bor guvoh bo'lganmiz".

Uchrashuvda adabiyot va san'at yo'nalishida faoliyat yurituvchi olimlar, yosh tadqiqotchilar va talabalar ishtirok etdi. Muloqot davomida olimning har bir masalaga uning tub ildizidan kelib chiqib baho bera olishi, ilmiy tahlil imkoniyatlarining kengligi va har bir fikrning hujjatlar bilan asoslangani ilm dunyosiga qadam qo'yayotgan yoshlarga o'rnak bo'lganiga shubha yo'q.

"Ustoz bilan uchrashuv – biz uchun har doim katta xazina sari yuzlanishga teng hodisa, – deydi filologiya fanlari doktori, professor Sanobar To'laganova. – Ustozimiz siyosida o'zi tadqiq etgan ulug' ma'rifatparvarlar kabi "xodim ul-millat" bo'lishga ahd qilgan inson gavdalanadi. Domla kamtar ziyoliga xos hayot kechirmoqda. So'z berilsa, gapirdi, lekin davrlarda so'rab so'z olmadi. Millat tarixining haqiqatlarini farazlar bilan emas, aniq dalillar bilan ochib berdi. Bunday yuksak maqomdagi olimlar suhbatini, duosini olishimiz kerak, ularga hurmat ko'rsatish bizning vazifamizdir".

Sirojiddin Ahmad faoliyati davomida "Qizil mustamlaka: e'lon qilinmagan urush", "Ikki imperiya asoratida", "Ismoil Gasprinskiy va Turkiston", "Milliy hurriyat adabiyoti", "Qayum Ramazonning ushalmagan orzulari", "G'oz Yunus", "Ubaydulla Xo'jayev", "Mahmudxo'ja Behbudiy" kabi o'nlab fundamental kitoblarni, shuningdek, Tohir Shokirning "Turkistonda turk mafkurasini va Alisher Navoiy" va Munavvar qori Abdurashidxonovning "Men sendamen..." kabi yirik tadqiqotlarni millatimizga tuhfa qildi. Bu ulkan ilmiy maktab bilan yuzlashish yoshlar qalbida ham o'ziga xos tafakkur olamining sirlariga daricha ochishi shubhasiz.

Suhrob ZIYO



“Biz koinotni zabt etyapmiz, ammo o'z ichki dunyomizdan bexabarmiz.”

Jorj KARLIN



MUTOLAA

Uchta hikoya bilan bir kitob chiqarish uchun ham yurak kerak. Taniqli adib Xayriddin Sultonning “Osmoni falaklarda” kitobi uchuvchilar hayotidan olingan uch hikoyadan iborat ekan. Bu ijod mahsuli, janriga qaramay, qissa yukini ko‘tarib turibdi. Nazariy tahlilni olimlarga qoldiramiz. Kitob nomining o‘ziyoq odamni entiktiradi, dilgir qiladi, o‘yga toldiradi...

Osmoni falaklarda... Oxirgi marta qachon osmonga termildim, cheksizlik, aql bovar qilmas o‘lchamlar va sirli ma’volar haqida xayol surdim, deb savol berdim o‘zimga. Yaqin orada bunday sakinat his qilmadim. Odamning oyog‘i yerdan uzilmasligi kerak, lekin yerga yopishib qolish ham yaxshilik keltirmaydi. Ayniqsa, kaftdek ekran ko‘pchiligimizning yer-u osmonimizga aylanib qolgan bir zamonda. Yozuvchi o‘quvchisini ana shu zaminiy tashvishlardan ko‘tarilib, osmoni falaklarda sayr qildirishni istagan bo‘lsa, ne ajab.

Bolalik osmonlarida oppoq ko‘pik iz qoldirib samolyotlar sharqdan g‘arbga, g‘arbdan sharqqa uchib o‘tardi. Ba‘zan bosiq guvullash ham eshitilardi. Quyosh nurida yaltirayotgan bu fan-texnika mo‘jizasiga qarab kimningdir og‘zidan yodlab olganimiz bir qo‘shiqni xirgoyi qilardik o‘rtoqlar bilan:

**Osmonda samolyot uchib ketyapti,
Ichida kennoyim yig‘lab ketyapti.
Kennoyi, yig‘lamang, o‘g‘il ko‘rasiz,
O‘g‘ilning ismini Otabek qo‘yasiz...**

Ma’nosini tushunib-tushunmay aytaverardik. Endi o‘ylasam, bu quvnoq ohang ortida tirnoqqa zor ayolga yo‘llangan bolalarcha hamdardlik bor ekan.

Keyin shart yugurib, biror daftarni o‘rtasidan yirtib olardik. Zumda qo‘lbola samolyot yasab uchirardik, kimniki uzoqqa boradi, deb o‘zimiz ham ortidan chopib ketardik. Hafsalasi borlar samolyot qanotlariga O‘zbekiston bayrog‘ini chizib qo‘yardi. Chunki biz uchun samolyot albatta davlat bayrog‘i rangida bo‘lishi kerak. Bu, o‘sha, kinolarda ko‘rib o‘rganganimiz “O‘zbekiston havo yo‘llari”ning uchoqlariga pinhona havas va hayrat edi.

O‘qituvchimiz “Katta bo‘lsang kim bo‘lasan?” desa “uchuvchi” degan ko‘pchilik. Ota-onalar ham qaytarmasdi shash-timizdan: orzu qilishga imkon berardi, orzularimizga sherik bo‘lib qog‘ozdan samolyotlar yasardik. Demak, odamda hech kim o‘rgatmasa ham yuksaklikka, osmonga, ta’bir joiz bo‘lsa, quvilgan jannatga intilish instinkti yashayverar ekan-da.

Osmonda quyosh, oy, yulduz, bulut, samolyot, o‘tgan bobo-buvilarimizning ruhidan tashqari yana bir do‘stimiz bor edi o‘shanda. Uning ismi Kichkina shahzoda bo‘lib, negadir, uning gaplarini Ekzuperi degan odamga nisbat berishardi. Kamiga u haqdagi kitobning ichki muqovasiga ko‘rinarli qilib “Xayriddin Sulton tarjimai” deb yozishardi. O‘zi o‘zbekcha bo‘lsa, nimani tarjima qiladi, deb o‘ylardik.

Bolalik tugab, o‘smirlikning sirli fasllariga kirib bordik. Bu yerda parvoz uchun “temir qush” ham, uchuvchi ham kerak emasdi. Oshiq bo‘lsang kifoya. Oshiq bo‘ldik, pand yedik. Balki havas bo‘lgandir, lekin toza edi u tuyg‘ular. Tushunsak-tushunmasak, Sherali Jo‘rayevning “Birinchii muhabbatim” qo‘shig‘i dilga cho‘g‘ tashlar, oh bo‘lib bog‘izimizni kuydirib o‘tardi. O‘z-o‘zidan keyingi qo‘shiqqa o‘tib ketadigan ro‘yxatda esa tor va doiradan mutlaqo farq qiladigan cholg‘ularda ijro etilgan musiqa xayolni olardi. Keyin xuddi cheksiz samoda uchib ketayotgan samolyot ovoziday vazmin ohang taralardi:

**Oltin qanot qushlar uchsini,
Bizni mudom baxtlar quchsini...**

Shu. Bu yog‘i oliy ta’lim, ish, turmush, tashvish. Osmonga qarashga ham, osmoniy xayollar surishga ham fursat qolmadi, fursat bo‘lganda zavq topilmadi. Zavqimizni telefon ekranlari tortib oldi. Qaytmas bo‘lib ketayotgan yoshlik yillari “ish-uy-ish”

yo‘nalishida o‘ta boshladi. Sirojiddin Sayyid satri bilan aytganda, “Biz nima yo‘qotdik u asfaltlarda?”

Keyin uylanish vaqti yetdi. Oila, yangi hissiyotlar qanotida uchib yurganimda Xayriddin Sultonning “Osmoni falaklarda” kitobi qo‘lga tegdi. Yana osmonga qaytish boshlandi.

Bu osmonlarda “Kichkina shahzoda”lar ulg‘aygan, ularning oti Muhammadkamol Otaboyev, Rashod Shamshetov, Iskandar Isroilovga aylangan ekan.

Bir qarashda Xayriddin Sultonning erkak qahramonlari ojiz ko‘rinadi. Serandisha va sero‘yligi sababdir bunga. “Ko‘ngil ozodadur” qissasidagi Qunduzning G‘ulomga qarata “Nega meni ilgariroq urmadingiz, G‘ulom aka?!” degan xitobini eslang.

xarakter ochib beradi, ularni voqealar izmiga tashlab, xulosani o‘quvchiga qoldiradi. Hayotning o‘zi kabi...

Ayrim misollar. Muhammadkamol Otaboyev 2001-yil 11-sentyabr voqealaridagi jasorati uchun O‘zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlanadi. Shuning o‘zi ham bir asarga yetgulik manba. Biroq muallif faqat shu bilan cheklanmay, buni hikoyaning birinchi qismida keltiradi, xolos. Chunki bu holda Otaboyevning jasurligi, nari borsa, o‘z ishining ustasi ekani ochilardi-da, yaxshigina ocherk bo‘lardi. Lekin ichki dunyosi qorong‘i bo‘lib, ma’naviy fazilatlarini parda ortida qolib ketardi. SHAXS sifatida ochilmagan qo‘riq bo‘lib yotardi. Shuning uchun “Ikki karra qahramon” hikoyasida Kamolning faoliyati va shaxsiy hayotidagi ikki fojia yonma-yon

keskin voqea sodir bo‘lmasin, uchala uchuvchi ham samolyotlarini eson-omon yerga qo‘ndiradi.

Ba‘zan bir dunyo hikoya o‘qiyamiz, ammo hech vaqo esda qolmaydi. Ammo shunday hikoyalar bo‘ladiki, o‘zi bir dunyoga aylanib, sizni domiga tortib ketadi. Bora-bora ichki dunyoningizning bir bo‘lagiga aylanadi.

Chexovning “Uyqu istagi”, Kortasarning “Biz Glendani shunday yaxshi ko‘ramiz”, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”, Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun”, Odil Yoqubovning “Yaxshilik”, Erkin A‘zamning “Chantramore”, Murod Muhammad Do‘stning “Dasht-u dalalarda” hikoyalarining o‘zi bir katta asar-ku!



Xayriddin Sultonning “Onamning yurti”, “Yo, Jamshid!”, “Bunchalar shirinsan, ey achchiq hayot!” hikoyalari ham shu safda. Shoir odam o‘zini to‘rt satrda ko‘rsatgani kabi, yozuvchi mahorati ham hikoyada ayon bo‘ladi.

“Bir kishilik aviahalokat” hikoyasini esa yangi kitobning qalbi, deb o‘yladim. Hikoya Chingiz Aytmatovning “Jamila”, “Sarvqomat dilbarim” qissalari, Stendalning “Parma ibodatxonasi” romani va Lev Tolstoyning “Anna Karenina” epopeyasini eslatdi. Bularda oila va sevgi munosabatlari zid kelib qoladi. Qahramonlarni na qoralab, na oqlab bo‘ladi. Umuman olganda, har doim ham yaxshi yo yomonga ajratish to‘g‘rimi? U holda nisbiylik nazariyasi qayerda qoladi?

Hikoya boshidagi litsey bitirayotgan qoni qaynoq o‘smir Iskandarning dilbar qiz Sadaf bilan ustoz-shogird bo‘lishi, boz ustiga, ikkalasi deyarli ko‘p vaqt yolg‘iz qolib ketishi bo‘lg‘usi bir falokatga ishora qilganday bo‘ladi. His-tuyg‘ulari shakllanayotgan yigitcha repetitori Sadaf timsolida o‘zi anglab yetmagan holda barkamol ayol siymosini ko‘ra boshlaydi (Bu yangilik emas. Maktab paytida o‘qituvchisini yaxshi ko‘rib qolgan o‘quvchilar bo‘lgan-ku). Kamiga Sadafxonim ham ingliz tilini tez o‘rgatish uchun abituriyent bilan “oshiq-ma’shuq” o‘yinini boshlab yuboradi. Yigitcha bosh-adog‘i yo‘q labirintga tushib qoladi.

Sadafga kelsak, u achinarli qismat egasi. Iskandarning aviatsiya bilim yurtiga tayyorlanayotgan, shu bois tashqi ko‘rinishi ham ko‘rkam va qizlar diliga cho‘g‘ tashlashga qodir ekanini hisobga olsak, “qariqizlikka ishonchli nomzod” bo‘lgan Sadaf undan erkak mehri va e‘tiborini kutgan bo‘lishi mumkin. Bu yerda shahvoniy his haqida gap bo‘lishi mumkin emas, shunchaki, kunda-kunora yonida sog‘lom va aqlli yosh yigitni ko‘rish uning ayollik izzat-nafisiga kifoya qilgan. Shuning uchundir, keyinroq u qo‘shimcha darslarni bepul o‘tadi, uni o‘z yonida qoldirish uchun turli rejalar tuzadi. Bularning barchasi boshda Iskandar foydasiga ishlagan, albatta.

Hikoyani aytib berish niyatim yo‘q. Faqat e‘tibor tortgan nuqtalariga to‘xtalmoqchiman. Xullas, vaqt o‘tib ikkalasi ham ajralishadi, o‘z yo‘lidan ketib oila quradi. Iskandar Yaxshigul ismli yaxshi qizga uylanadi. Ayolining ismi Sadafning ona shahri bo‘lmish Qirguli nomini yodga soladi. O‘rtada nendir bog‘liqlik borday.

Qirguli va Yaxshigul bir-biriga teskari dunyo. Qirdagi o‘simliklar kurashuvchan, sabr-bardoshli, ildizi mustahkam, tirik qolish uchun turli hiylalardan xabardor bo‘ladi. Yaxshi gullar esa xonaki bo‘ladi. Ular beozor, ko‘zni quvnatuvchi, sadoqatli va ko‘nuvchan. Agar qirdagilar suvga yetish uchun ildizini yoysa, tonggi shabnamlarni kutib tursa, xonaki gullar sohibi marhamatiga zor turadi. Achinarlisi, qirdagi gullar qancha chiroyli bo‘lmasin, ko‘pincha mol-holga yem bo‘ladi: muhabbat bo‘stoniga sigir oralab ketadi...



Otabek BAKIROV

Sadaf esa xotini o‘lgan mehnat muhojiriga turmushga chiqadi, ammo baxt topmaydi. Iskandarning ham dardi ichida. “Yashash kerak, sevisht shart emas” (Muhammad Yusuf).

Charxi kajraftor aylanar ekan, yaralari bitib borayotgan bir pallada, yozuvchi ta’biri bilan aytganda, “saodatsiz bir ayyomda” ular yana uchrashadi. Munosabatlar chuqurlashgandan chuqurlashib, chohga yaqinlashiradi. Hatto o‘rtadagi farzandlar ham ularning o‘zaro munosabatlariga to‘sqinlik qilolmaydi. Quyidagi parchaga e‘tibor bering:

“...Harqalay, Iskandarning qalbida zig‘irdek bo‘lsa-da, insof saqlanib qolgan ekan, Sadaf, yaxshimi-yomonmi, bir bechora musofirning xasmi ekanini o‘ylab, vijdoni qiynalardi. Ammo Sadaf bir og‘iz gap bilan uning ko‘zini moshdek ochib qo‘ydi.

– Rahming kelyaptimi? – deb so‘radi mahbubining qo‘ng‘iroq sochlarini silab yotarkan.

– Ha, – deb chin dildan iqrar bo‘ldi Iskandar.

– Agar u sening o‘rningda bo‘lganida, senga rahm qilarmidi?

– Bilmadim.

– Xotin kerak bo‘lsa, uch yilda loaqal bir marta kelmasmidi? Nima, o‘ylaysanki, u Novosibirskda beliga bog‘lab yuribdimi? Ko‘nglingni to‘q qilaver, hoynahoy, bironta Mashanimi, Dashanimi topib olgandir. Sen undan ko‘ra bechora xotiningga achinsang bo‘lardi, – deb iljaydi Sadaf. – Esongulmidi oti? Darvoqe, qizing necha yoshga to‘ldi, suratini ko‘rsatmaysanmi?

– Menda surati yo‘q, – dedi Iskandar. – Bo‘lsayam, hech kimga ko‘rsatmasdim.

– Nega?

– Qo‘rqaman. Ko‘z tegadi.

– Him-m... Surati bo‘lmasa, ismi bordir? Iskandar javob bermadi.

– Ha, nega indamaysan, oti yo‘qmi? – deb so‘radi ayol labini burib.

– Oti... oti Sadaf.

– Nima?! Rostdanmi?.. – Sadaf sapchib tushdi. – Aqling joyidami seni?

Iskandar bosh chayqadi:

– Albatta joyida emas.

– Tavba! Qizing kimga o‘xshaydi, senga-mi, onasigami?

– Umi? Senga o‘xshaydi.

– Jinniliging aniq. Qanday qilib menga o‘xshasin?

– Bilmasam. Ishqilib, o‘xshaydi-da. Xudoning qudratiga shak keltirmassan?

– Unda, men ham xushomad uchun, Matlaxon senga o‘xshaydi, deyishim kerak ekan-da?

– Shart emas, – dedi Iskandar kulimsirab. – Shundoq ham bilaman o‘xshashini.

– Ajab! Qachondan buyon genetikada bunday yangilik? – Sadaf yuzini xushtorining ko‘ksiga mehr bilan bosdi...

Ko‘rinib turibdiki, Sadaf va Iskandar muhabbati qanchalik kuchli bo‘lmasin, real olib qaraganda, ikkalasi ham xiyonatkor. Hatto, Iskandar bu borada “lider”. Garchi qarindoshlari yigitni “kofir yurtlardan shuncha yurib ham buzilib ketmagan” deb hisoblasada, Iskandar “qirchillama yosh yigit, u, tabiiyki, qanotsiz farishta emas, Rigada ham, Toshkentda ham Sadaf va Yaxshiguldan o‘zga ne-ne jononlarni ko‘rgan”. Sadafning Iskandar olib bergan kvartirada boshqa erkak bilan qo‘lga tushib qolishi ana shunga javobdardir. Iskandar Sadafning xiyonatini ko‘tara olmay, yuragida kuchli og‘riq bilan o‘zi boshqarayotgan samolyotni qo‘ndiradi-yu vafot etadi. Kema sardori Iskandar Isroilov so‘nggi safar uchun osmoni falaklarga otlanadi. Faqat qaytmas bo‘lib...

Balki bu yakun jahon adabiyoti bilimdonlariga ma’qul tushmas. Lekin bor gap shu. Baribir, millatni o‘z tomlaridan uzib tashlab, adabiyot yaratib bo‘lmaydi. Kingadir yoqsa-yoqmasa, xiyonat hech qachon oqlanmaydi.

Kitobni o‘qib bo‘lgach, yozuvchi uni qanday yozgan ekan, deb o‘yladim. Chunki kamina “Osmoni falaklarda”gi safarimni “yig‘lay-yig‘lay tugatdim oxir” (**Alisher Navoiy**).



Eng yaxshi yozuvchilarning asarlarini bir necha qaytalab o‘qish zarur. O‘qiganda ham, yozuvchi nima demoqchi ekanini va o‘z fikrini qanday yo‘l bilan o‘quvchiga anglata olganiga diqqat qilib, surishtirib borish kerak.

Abdulla QODIRIY



“Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!”



To'ra SULAYMON,
O'zbekiston xalq shoiri

OTA MAKON

Toshlarin tavof qil, tuprog'ini o'p,
Gardin ko'zga surtib, tug'rosini o'p,
Har sahar yukinib bayrog'ini o'p,
Bu Ota Makondir,
Bu Ona Yurtdir.

Boshing qo'yib topin ostonasiga,
Zog' yo'lata ko'rma ark-qal'asiga,
Hamisha tayyor tur himoyasiga,
Bu Ota Makondir,
Bu Ona Yurtdir.

Sayhuni, Jayhuni javohir, la'li,
Tog'lari tamalli, bog'lari bolli,
Taqqirimiz shu el bilandir bog'li,
Bu Ota Makondir,
Bu Ona Yurtdir.

Arkoni davlatin yo'li bir bo'lsin,
Yurgan yo'llarida nafs asir bo'lsin,
Taxt-toj, saltanati mudom sir bo'lsin,
Bu Ota Makondir,
Bu Ona Yurtdir.

Ko'ki ko'lankasiz – o'ftobli, oyli,
Fuqarosin ko'ngli Himoloy bo'yli,
Serfarzand, serdavlat, xayrli qo'lli,
Bu Ota Makondir,
Bu Ona Yurtdir.

Azaldan ardoqli, or-nomusli el,
To'qson to'qqiz bovli, biy, bo'lisli el,
Sabr-qanoatli, qut, qomusli el,
Bu Ota Makondir, Bu Ona Yurtdir!
Bu qadim Turondir – jon ichra jondir!



Azim SUYUN,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

O'ZBEKISTON SO'ZI

O'zbekim! O'zbeklar! O'z-o'ziga Bek,
O'z elida beklar, eshiting so'zim.
Bilaman, aslingiz – o'z so'ziga Bek,
Siz mening yuragim, siz mening O'zim!

Siz olomon emas – ajdodlar guvoh,
“Avesto” guvohdir – eng qadim doston.
Siz nonko'rlar emas, siz emas gumroh,
Siz podshosiz, siz xon, siz xoqon, sulton.

O'z ona tilingiz qutlug'dir sizga,
Siz unda bitgansiz ne go'zal kitob.
Bolta urmangansiz ildizingizga,
Ezgu So'z va Amal – siz uchun oftob.

G'animlar oldida tiz cho'kmangansiz,
Garchi kajraftordir bu dunyoyi dun.
Sotqin Yalovochlar, u siz emassiz,
Millat ori – Temur, siz – Jaloliddin.

Samarqand, Buxoro, Xivani qurgan,
Tarixlar me'mori, tojlar sirisiz.
Baxt-u farog'atin mehnatda ko'rgan,
Siz donishmand dehqon – zamin pirisiz.

Ha-ha, siz o'zingiz kalomi bilan
Bashar sharafini sharif etguvchi.
Ilm-u haq, haqiqat, a'moli bilan
Dunyoni kamolot sari eltguvchi!

O, siz uchun mangu bag'rini bergan –
Men – Tangri tuhfası – duogo'y bir jon,
Ozodlikning yashil tug'in ko'targan –
Ota makoningiz – Hur O'zbekiston!

ERK

(Dostondan parcha)

Chingizxon lashkari Urganch qamalida asirlardan jonli qalqon sifatida foydalanadi.
Shahar muhofizlari dushmanning ilg'orida “jonli qalqon” – qo'l-oyoqlariga tushov
urilgan o'z birodarlarini ko'rgach, kamondan o'q uzishni ham, uzmaslikni ham
bilmay qolishadi. Shunda asirlar ikkilanmay otaverishni, yog'iy hiylasiga uchmaslikni
so'raydilar.

Oqshom hali yoymagan parda,
Ko'kka zulmat inmagan hali.
Nur sirg'alar hali tog'lardan,
Quyosh butkul so'nmagan hali.
Kapalaklar qobig'in yorib,
Raqs tushmoqda bog'larda ozod.
Ular bilan o'ynayin borib,
Ot, Murodjon, Musulmonqul, ot!

Yodingdami, ovga chiqqan dam
O'lja poylab turardik qoyim.
Ilvasinni ataylab sendan
Bir dona ko'p o'tardim doim.
Ol, ko'ksimdan ushbu azobni,
Tushun, axir, ey odamizot,
Tenglashtirish kerak hisobni –
Ot, Samandar, Sultonmurod, ot!

Shudir urush bitgan qoida,
Yo o'ldirmoq va yo o'lmoqdir.
Eng yomoni – dushman poyida
Yurtga eltar narvon bo'lmoqdir.
Qachonlardir bu kunni vatan
G'urur bilan etsin desang yod,
Qutqargin bu yuzqarolikdan,
Ot, Rahimboy, o'tinaman, ot!

Hifzga muhtoj lolalar haqqi,
Munchoq ko'zli bolalar haqqi,
Ko'ksi kuyib ado bo'lgan-u,
Lek qaddi tik onalar haqqi,
Singillarning ko'zidan tomgan
Marjon-marjon donalar haqqi,
Yonsa faqat visoldan yongan,
O't ko'rmagan xonalar haqqi,



Iftixor XONXO'JAYEV

Jonim bilan berayin jon, ot,
Tilanmoqda ruh-u zabon, ot.
Titramasin qo'llaring, Elbek,
Ot, Jo'raqul, Jo'rasulton, ot!
El yovga qul bo'lmasin deb ot,
Zamin qonga to'lmasin deb ot.
Ot, Ko'kaldosh, shu emikdoshim
Tiriklayin o'lmasin deb, ot!

Urganch askarlari teskari qara-
gan holda ko'zlarida yosh bilan o'q
uzadilar.

Gulchehra UMIROVA

BOLALAR

Uxlatmang bolalarni,
Beshigini uyg'oting.
Yuragiga qulf solgan,
Eshigini uyg'oting.

Mehr degan zo'r qo'rg'on,
Chaman-chaman bo'y bo'lsin.
Har kimning yuragida
Vatan degan kuy bo'lsin.

Tillariga qo'ndiring
Qushlarning eng sayrog'in.
Jajji qo'lchalariga
Tutqazing yurt bayrog'in.

Ajdodlarga munosib
Voris bo'ling, bolalar!
Jaholatdan, illatdan
Olis bo'ling, bolalar!

DIQQAT, TANLOV!



**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi,
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-iyunda qabul qilingan “Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etish to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini xorijiy tillarga, jahon adabiyotining sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot tanlovini e'lon qiladi.

Mamlakatimizda ilk bor o'tkazilayotgan mazkur xalqaro adabiy tanlov milliy adabiyotimizni dunyoda keng targ'ib qilayotgan, jahon adabiyotining eng sara asarlarini o'zbek tiliga o'girib, kitobxonlarga taqdim etayotgan fidoyi tarjimonlar mehnatini munosib rag'batlantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish, xorijiy mamlakatlarda o'zbekistonlik adiblar ijodiga qiziqishni yanada oshirish kabi xayrli maqsadlarni nazarda tutadi.

Mazkur tanlovga e'lon berilgan sanadan boshlab o'tgan besh yil davomida kitob holida chop etilgan yoki bosma davriy va elektron adabiy nashrlarda e'lon qilingan tarjima asarlar qabul qilinadi.

Xalqaro tanlov quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi va unga belgilangan hajmdan kam bo'lmagan asarlar qabul qilinadi:

- o'zbek adabiyoti nasriy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida o'n bosma taboq;
- o'zbek adabiyoti she'riy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida besh bosma taboq;
- o'zbek bolalar adabiyoti namunalaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida besh bosma taboq;
- xorijiy tillarda yaratilgan nasriy asarlardan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida o'n bosma taboq;
- xorijiy tillarda yaratilgan she'riy asarlardan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida besh bosma taboq;
- xorijiy tillarda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalaridan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida besh bosma taboq.

Dramaturgiya janriga oid tarjima asarlar ushbu bandda ko'rsatilgan yo'nalishlar asosida ko'rib chiqiladi.

Xalqaro tanlovga asarlar 2025-yil 1-sentyabrga qadar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan qabul qilinadi.

G'oliblarning har biri maxsus diplom, ko'krak nishoni va bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Qo'shimcha ma'lumotlarni internetdagi **ogahiy.mukofoti.uz** saytidan olish mumkin.

HIKOYA

SENI YAXSHI KO‘RAMAN...

“Bugun xizmatga kelganimga ellik ikki kun bo'ldi. Adashmasam, bu yettinchi maktubim. Hisoblab ko'rsam, senga har hafta bitta maktub bitibman.

Sanobar! Bilasanmi, odamda esga olganda yurakni junbishga keltiruvchi ismlar bo'ladi. Sening isming men uchun sof muhabbat va ulg'ayishning ikkinchi nomidir. Bilaman, bu gaplarimga ko'rsatkich barmog'ing bilan kulgichlaringni ushlagancha kulyapsan. Shunaqa kulganing menga juda yoqadi. Men nimaki yozgan bo'lsam, erinmasdan o'qigin. Negaki, yuragim nimani buyursa, shuni yozmoqchiman.

Mendan sal narida turib xat yozadigan yigitning ismi Abror. Aytishicha, maktabda matematikadan “besh”-ga o'qigan ekan. Uning fikricha, dunyodagi har bir kalom hisob-kitobli. Kulgili-ya. Endi tasavvur qilib ko'r. Sen kimgadir shirin gapirding-u, undan xuddi shunday munosabat kutsang. Yoki yana kimgadir “Siz zo'ri!” deb aytasang-u, u zo'r bo'lmasa-chi? Mayli, menimcha, Abrorning gapini bunday tushunmaslik kerak. Unda qanday, deysanmi? Qara, sen kimgadir yaxshiilik qilsang, o'sha odamdan qaytmasa-da, boshqa birovdan bu, albatta, qaytar ekan. Bunga ishonching komil bo'lishi uchun qishlog'imizdagi Kenja boboning hayotini gapirib beraman.

Kenja bobo urushdan yarador bo'lib qaytadi. Esingda bo'lsa kerak, Shodmonbibi momo aytib bergandi Meliboy boboning bog'iga dovcha yegani kirganimizda. Esiladingmi?

Bobo bir oyog'ini begona yurtlarga “tashlab” keladi. Ketmunga kuchi yetgan qizmi-ayolni, yoshmi-keksami – bari dalada. Boboning vijdoni kayvoni Soniya momoning surpasidek pokiza bo'lgan. Shunday ko'ngli toza bo'lgan bobo ham qarab turadimi? U “Men qon kechib keldim, endi bir oyog'imni uzati-ib yotishga haqqim bor, ukaarlar”

desa, kim unga yurak yutib biror nima deyolardi? Yo'q, bobo qo'ltiqayoqqa tayanib, ertadan kechgacha el qatori tinim bilmay ishlaydi.

Bir kuni rais:
– Kenjaboy, sen pochta xililik qilmay-sanmi? – deb so'raydi. – Shundog'am qishlog'imiz uchun katta ishlar qilding. Seni qiynab qo'yamaylik yana...

Bobo pochta xil bo'ladi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, butun qishloq onalari boboni ko'rsa, xuddi dushmani ko'rgandek, oyoqlari qaltirab yuraklari to'kiladi. Ayollar bir narsadan qo'rqardi: qoraxat... Bobo ko'cha boshida ko'ringudek bo'lsa, hozir qora sumkasini kovlaydi-yu, yigirma yil ko'ksimda o'sgan bolamni bitta xatga joylab, uyimni kuydiradi, deb qo'rqisharkan. Bobo nima qilsin? Axir, odamlarning o'zi shu ishga qo'ygan-ku. U bir-ikki marta ishini tashlamoqchi bo'ldi, biroq... Raisning yuzi issiqlik qildimi, jimgina ishlab yuraverdi.

Keyin bilasanmi nima bo'lgan? Hech kimga xat kelmay qo'ygan... Ha, shunday. To'g'ri, goh-gohida bittayarimta omonlik daragini beradigan nomani berib ketardi bobo. Eng qizig'i, urushdan yigirma yil o'tib, bobo bu dunyoni tark etganida odamlar uning sandig'idan ikki bog'lam xat topib olishgan. Ular, bilasanmi, bir necha o'nlab kishining qoraxatlari bo'lgan ekan. O'sha qoraxatlardan biri otamning bobosiniki bo'lgan. Hatto, boboning qishlog'imiz onalariga yozgan maktubi ham topilgan. Esimda qolgani shu: “Agar onalar bir kun farzandi qog'ozga aylanib kelishini bilganida, tug'magan bo'lishardi. Agar onalar farzand dog'i yurakni teshib yuborishini bilganlarida turmushga chiqmagan bo'lardilar. Men yomon yashadim. Ha, birovga yomonlik qilmasam-da, lekin yomon yashadim. Negaki, men ko'z yoshlariga vositachi bo'ldim”, deb yozgan ekan. Qolgani esimda yo'q. Yaxshi eslasang kerak,

bayramlarda Kenja bobo haqiga duo qilamiz. Bu unga onalarning marhamati, kechirgani, sen to'g'ri yashading, degani... Kenja boboni o'yladim-u, Abrorning fikriga qo'shildim. Balki sen ham ma'qullarsan...

Sanobar, momom haqida yozib, meni yana xursand qilding. Senga momom haqida bir gap aytib beraymi? U oilaning kenjasi bo'lgan. Endi uchga kirganida yigirma ikkiga to'lgan akasi armiyaga ketib, qaytmagan. Uni o'sha yoqdan urushga olib ketishgan ekan. Momomning ota-onasi “Ana keladi, mana keladi”, deb bolasining diydorini qiyomatga qoldirib, bu dunyodan o'tib ketgan. Shu fojia sabab momom, bilsang kerak, birorta farzandini qishloqdan chiqarmagan. Armiyaga borishga-ku, aslo unamagan. Shuning uchun barcha amakilarim bir mahallada yashashadi. Birovi uchuvchi bo'lishni orzu qilgan ekan. Hozir ham aytadi. “O'zim-ku, bo'lmadim, lekin o'g'lim, albatta, uchuvchi bo'ladi”, deydi. Bunga ham momom unamagan. Qishlog'imizda bir kampir bo'lardi. Ismi Anzirat. Shu momoning ikki uchuvchi o'g'li urushda samolyoti bilan portlab ketadi. Momo jinni bo'lib qolgan ekan. Eri esa “Bir kuni bolalaring keladi, mana ko'rsan”, deb uni ovutishga urinarkan. Sen bilan biz eslolmaymiz, aytishlaricha, mustaqillik bo'lgan yili bayrog'imiz naqshi tushirilgan samolyotlar qishloq tepasidan o'tadi. Shunda bobo: “Kampir, bolalaring qaytdi”, deydi. O'lim to'shagida yotgan momo o'rnidan turib osmonga qaraydi va ilahqlik bilan “Qani, bolalarim, ular samolyot-ku”, deydi.

To'g'ri, lekin ichida o'zimizni bolalar-da, – deydi bobo. Momo yengil tin oladi va shu kecha omonatini topshiradi.

Buni sen ham eshitgansan, eslatganim sabab – shunga o'xshash voqealar momomni qo'rqoq qilib qo'ygan. Axir, uzoq yillar qalbida saqlanib



Sanjar TURSUNOV

kelayotgan qo'rquvni chiqarish oson emas-ku!

Momom mening xizmatga bori-shimga ham tish-tirnog'i bilan qarshi bo'ldi. Barcha amakilarim-u ammalarim oraga tushib, bir amallab ko'ndirdik. Avvalgi xatingda momomning xursand bo'lganini, hozir armiya yaxshi ekan, deb alqagandanini yozganding. Shunisiga xursandman.

Sanobar! Yuragimda, butun jismimda olov bor. Bilasanmi, bu olov qachon paydo bo'ldi. Qasamyod kuni. Ha, o'shanda shapkamni tepaga otarkanman, xuddi yuragim osmonga chiqib ketadigandek hapriqar, yer-u ko'kda yuraklar uchib yurgandek tuyulgan menga.

Seni tishing tushgan kundan boshlab yaxshi ko'raman. O'sha Yakkatol bog'idagi yo'lda qilingan orzudan boshlab yaxshi ko'raman.

Avval tog'ni, qishloqni, seni yaxshi ko'rdim. Sen tufayli hayotni, dunyoni, yer-u osmonni yaxshi ko'rdim. Hamma yaxshi ko'rishlarim yig'ilib-yig'ilib ulkan muhabbatga aylandi.

Seni, meni, barchani kaftida ko'tarib yurgan onajon zaminga, boshimda quyosh nuri-yo yomg'ir-qorini sochgan osmonga, shu zamin, shu samogada vatan bo'lgan O'zbekistonni yaxshi ko'raman!

Sanobar! Men zo'r odam bo'ldim. Ha, yelkamda O'zbekistonning kafti turibdi. Bu qo'l yelkamda ekan, bu dunyoda mendan zo'r odam yo'qi!”

BIR HAYKAL TARIXI

“Xayol oti bilan kezib” (Abdulla Oripov iborasi) uzoq tariximizga yoʻl olsak-da, ulugʻ bobomiz Alisher Navoiy davriga borsak. Ul zoti muborakning ilm istab roʻyi zamin sayqali qadim Samarqandga otlanganini xayol koʻzlarimiz bilan kuzatsak.

Ana, navqiron Navoiy Taxtaqoracha dovonidan oshib, ikki tomonda osmon bilan boʻylashib turgan viqorli togʻlarga, u togʻlar bagʻridagi turfa oʻt-oʻlanlarga, dov daraxtlarga mahliyo holda jannatmonand bu goʻshaning tiniq, begʻubor havosidan simirib, mamnun-u masrur bormoqda. Ul zotning uloviga ham oʻziga bir zum dam berish va bu shifobaxsh havodan toʻyib-toʻyib nafas olmoq niyatida yoʻl chetidagi doʻngliklarda oyoq choʻzib oʻtirganini oʻylasak, yuragimiz hapriqadi. Biz har kuni koʻradigan va ahamiyat bermaydigan mana shu ulugʻvor togʻlarga, huv pastda ohangdor jildirab oqayotgan daryoga buyuk Navoiyning muborak nigohi tushganini oʻylab koʻrsak, odam gʻalati boʻlib ketadi. Bizning nazarimizda jonsiz, aslida tirik mavjudot boʻlgan oʻt-oʻlanlar, daraxtlar, “viqor-la oʻshshaygan qoya”lar (Oybek) bizni besh asr oldin oʻtgan buyuk bobomiz bilan “birlashtiradi”.

Navoiy hazratlari Omonqoʻton, Qiziltoʻriq, Tersak, Qizilbosh, Qoratepa, Mingbuloq (bu men tugʻilgan qishloq), Bahrin qishloqlaridan oʻtib Kenagas qishlogʻiga keladi. Atrofga razm soladi. Sharq-u janub tomonda oqsoch Urgut togʻlari, gʻarb-u shimol taraflarda baland-past qirlar osha voha yastanib yotipti.

Navoiy bobomiz yashagan davrdan endi xayol optimiz bilan oʻz zamonamizga, yaʼni 1991-yilga qaytaylik. Maʼlumki, oʻsha yil Oʻzbekistonimizda Alisher Navoiy yili, deb eʼlon qilindi. Ulugʻ zotning ruhi kezib yurgan oʻsha shukuhli kunlarda bir fikr keldi xayolimga. Sinfdosh doʻstim Zoyir Ziyoyev Urgutning Navoiy nomidagi kolxozida rais edi. U bilan goh Toshkentda, goh Samarqand-u Urgutda uchrashib-gaplashib turar edik. Zoyir bilan shunchaki sinfdosh emas, balki joʻra kirishgan edik. Ilgari shunday urf bor edi: agar ikki yigit joʻra kirishadigan boʻlsa, bu ularning otanalari oldida eʼlon qilinar, yigitlar bir-biri bilan aka-ukalar kabi oqibatli boʻlishga ahd qilardi. Shu bois Zoyir biznikiga, men ularning uyiga tez-tez borib turardim. Shukurki, bu joʻrachiligimiz hamon davom etmoqda...

Gurunglarimizdan birida xayolimga kelgan fikrni unga aytdim:

– Zoyir, mana, necha yildan beri kolxozda raissiz. Bilaman, shu yillar davomida koʻp xayrli ishlar qildingiz. Menda bir taklif bor. – U yalt etib menga qaradi. Zoyir yoshligidan epchil, harakatchan, tinib-tinchimas, yangilikka oʻch yigit edi.

– Qanday taklif?

– Bilasiz, bu yil respublikamizda Navoiy yili, deb ataldi (hali mustaqillik eʼlon qilinmagan edi). Siz rahbarlik qilayotgan kolxoz Navoiy nomida. Yil nomidan foydalanib, Alisher Navoiy haykalini qoʻydirsangiz. Bu shu paytgacha qilgan

barcha ishlaringizning eng ulugʻi va mangu qoladigani boʻladi, nazarimda.

Zoyirning koʻzlari charaqlab ketdi.

– Zoʻr boʻlardi! – dedi. – Haykaltaroshni qayerdan topamiz?

– Bu ish mening zimmamda. Ilhom Jabborov degan isteʼdodli haykaltarosh bor. Shoir Sulton Jabborovning ukasi. U bilan oʻzim gaplashaman. Istasangiz, birga boramiz.

...Shunday qilib, ikkovimiz Ilhom Jabborovning ustaxonasiga bordik. Zoyirni tanishtirdim, maqsadni aytdim. Ilhom avvaliga ishim koʻp, deb taysalladi.

– Navoiy yilida Navoiy nomidagi kolxozda Navoiy haykalini qoʻymasak boʻlmaydi, –



dedim qatʼiyat bilan.

Ilhom Jabborov nihoyat rozi boʻldi.

– Oʻquv yili boshlanishida haykalning ochilish marosimini qilsak, zoʻr boʻlardida, – dedi Zoyir. Suhbatimiz bahor oylarida kechayotgan edi.

Ilhom biroz oʻylandi.

– Buyurtmalarim koʻp. Sentyabrgacha ulgurishim qiyin, – dedi moʻylovini silab.

– Ilhom, kimning, qanaqa buyurtmasi bor, bilmayman, – dedim. – Ammo, imkoni boʻlsa, shu ishni tezlashtirib bering. Birgina Zoyir emas, butun Urgut aholisi sizdan minnatdor boʻladi.

Xullas, haykaltarosh koʻndi, Zoyir aytgan vaqtgacha bitkazib, sentyabrda ochilish marosimini oʻtkazishga vaʼda berdi.

Ilhomning ustaxonasi biz yashaydigan

“dom”ga yaqin edi. Shu bois vaqtim boʻldi deguncha uning oldiga borib, biroz suhbatlashib, ishnig ketishi bilan qiziqib, Ilhomning ilhomini joʻshtirib turdim. Zoyirku bir oyogʻi Toshkentda boʻlib qoldi. Baʼzan hazillashardim:

– Zoyir, kolxozning ishlariga ham qara-yapsizmi?

– Kolxoz ishining nimasiga qarayman? Odamlarga hadeb aql oʻrgataverib xalaqit bermasangiz boʻldi, hamma ishini oʻzi bilib qilaveradi.

Zoyir Navoiy haykali qoʻyiladigan joyni tanlashga kirishdi. Kolxoz idorasi oldiga qoʻyish kerakmi? Yoki maktab hovlisigami? Har qalay oʻquvchilar darsda Alisher

koʻrsataman, – deydi va Toshkent-Termiz yoʻli tomon yuradi. – Kolxoz idorasi oldiga qoʻysak deysiz, kolxoz bugun bor, ertaga nima boʻlishini Xudo biladi. Siyosat qayoqqa qarab ketayotganini koʻrib turibsizku. Hazratning haykalini shunday joyga qoʻyaylikki, zamon ham, siyosat ham taʼsir qila olmasin... Eng muhimi, ehtimol, Navoiy hazratlari Samarqandga oʻtayotganda shu tepaliklarda oʻtirib hordiq chiqargandir...

– Boʻlishi mumkin, – deydi Zoyir.

Darhaqiqat, istiqloq shabadasi esa boshlagan edi. “Davlat tili haqida”gi qonun, Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilingani, Navroʻz umumxalq bayrami sifatida keng nishonlangani shundan dalolat berardi.

Ular Kenagas qishlogʻi yoʻlidan Toshkent-Termiz yoʻliga chiqib, oʻngga buriladida, ellik qadamlar yurib toʻxtaydi. Erkin aka Zoyirning yelkasiga qoʻlini qoʻyib, kunchiqish tarafdagi tepalikka ishora qiladi:

– Mana shu tepalikka qoʻyish kerak haykalni! Navoiy bobomiz oʻsha yerdan atrofni kuzatib turganday boʻladi. Bu joy Toshkent-Termiz yoʻlining qoq oʻrtasi – shu yerdan Toshkentgacha ham, Termizgacha ham 354 kilometr. Samarqand tarafdanda Termiz tomondan kelganlarga birdek yaqqol koʻrinib turadi. – Erkin aka jingalak sochlarini silab, mayin jilmayadi. – Mana shu yerdan haykalga chiqib boradigan zinali yoʻl qilasiz. Haykal atrofida maydon boʻlishi kerak. Ziyoratga kelganlar oʻsha yerdan chor atrofni tomosha qiladi.

Bu fikr Zoyirga maʼqul boʻladi.

...1991-yilning avgust oyi oxirida xalqimizning bir yarim asrlik orzusi ushaldi – Oʻzbekiston mustaqil davlat, deb eʼlon qilindi. Ana shu tarixiy ayyomdan oʻn yetti kun oʻtib, 1991-yil 17-sentyabrda Urgut tumanining Kenagas qishlogʻida hazrat Alisher Navoiy haykalining tantanali ochilish marosimi boʻladi. Unda Samarqand viloyati va Urgut tumani rahbarlari, taniqli adabiyotshunos Botirxon Valixoʻjayev, shoir Oydin Hojiyeva va boshqalar ishtirok etadi.

– Mana shu hududdan bir necha shoir va yozuvchilar yetishib chiqqan, – deydi tadbirni kirish soʻzi bilan ochgan Zoyir Ziyoyev bu yerda Alisher Navoiy haykali bejiz qoʻyilmayotganiga urgʻu berib. – Barot Boyqobilov, Erkin Neʼmatov, Asad Dilmurod, Abdusaid Koʻchimov, Abdurashid Abdurahmonov shular jumlasidan...

Bu gaplarni eshitgan Botirxon Valixoʻjayev Zoyirning gapini tasdiqlaydi.

– Shuncha adib-u olimlarni bergan tabarruk joyda buyuk Navoiy haykalining oʻrnatilgani mantiqan toʻgʻri ish boʻlibdi.

Tadbir oxirlab qolganda “Zoir Ziyoyev oʻgʻil nevara koʻribdi” degan xushxabar yetib keladi.

Hamma suyunadi, yigʻilganlar Zoyirni qutlashadi. Jamoa viloyat rahbari Poʻlat Abdurahmonovga yuzlanadi:

Navoiy haqida oʻqiydi, haykalini koʻrib tursa foydasi koʻproq boʻlar...

Oʻyladi, koʻp oʻyladi, har taraflama oʻyladi. Bir qarorga kelish oson boʻlmadi. Oxiri shoir Erkin Neʼmat oldiga bordi. Erkin aka uzoq yillar Oʻzbekiston radiosida, televideniya ishlagan, sheʼriy kitoblari chiqqan.

– Erkin aka, Alisher Navoiy haykalini qoʻymoqchimiz, shunga joy tanlayolmay boshim garang, – dedi Zoyir. – Bir maslahat bersangiz. Kolxozimiz nomini Stalin oʻrniga Navoiy nomiga oʻzgartirgan ham sizning otangiz. Shuning uchun oldingizga keldim.

Erkin aka Zoyirning gaplarini tinglab, biroz oʻyga toladi. Soʻng oʻrnidan turadi.

– Yuring, haykalni qayerga qoʻyishni

SUNʼIY QON

Yaponiyaning Nara tibbiyot universiteti olimlari har qanday qon guruhiga ega odamlar uchun mos boʻlgan innovatsion sunʼiy qon ishlab chiqdi. Ushbu kashfiyot tibbiyotda muhim voqea boʻlishi mumkin.



Yangi texnologiya foydalanish muddati oʻtgan qondan gemoglobinni ajratib olishga asoslangan. Temirga ega bu oqsil eritrotsitlarda kislorodni tashish uchun javobgardir.

Sunʼiy qonning asosiy afzalliklaridan biri uni uzoq muddat davomida – xona haroratida ikki yilgacha va muzlatgichda besh yilgacha saqlash imkoniyatidir. Oddiy donor eritrotsitlari koʻpi bilan 42 kun saqlanadi va maxsus sharoitlarni talab qiladi. Sunʼiy qizil qon tanachalari 2030-yilda amaliy foydalanishga topshirilishi mumkin.

IKKI FARZANDLIK SIYOSATI
BEKOR QILINDI

Keksayib borayotgan aholi orasida yoshlar sonini oshirishga umid qilib, kommunistik Vetnamning Milliy assam-

bleyasi oilalarni ikki nafar bola bilan cheklash toʻgʻrisidagi qonunni bekor qiluvchi yangi tuzatishni qabul qildi.



Mamlakatda oilalar kam farzand koʻrmoqda va tugʻilish darajasi 2024-yilda har bir ayolga 1,91 nafargacha pasaygan. Bu tendensiya, ayniqsa, yashash xarajatlari yuqori boʻlgan Xanoy va Xoshimin kabi shahar hududlarida yaqqol kuzatilmogʻda.

BOLGARIYA 2026-YIL YANVARDAN YEVRO HUDUDIGA QOʻSHILADI
Yevropa Komissiyasi Bolgariyaning 2026-yil 1-yanvardan yevro pul birligiga oʻtishiga rozilik berdi. Bu qaror mamlakatni yagona valyuta hududining 21-aʼzosiga aylanishiga yoʻl ochadi.



Mamatqul HAZRATQULOV

– Shunday quvonchli, ulugʻ kunda tugʻilgan chaqaloqqa oʻzingiz ism qoʻyib bersangiz.

– Bu yerda bizdan ulugʻ insonlar bor, masalan, professor Botirxon aka. Shu kishidan iltimos qilamiz, – deydi Poʻlat Abdurahmonov.

Aksariyat ilm kishilariga xos kamtarlik, oddiylik Botirxon akada yuksak darajada edi.

– Yoʻq, yoʻq, – deydi u kishi. – Toshkentdan kelgan aziz mehmonlar bor. Xususan, isteʼdodli shoir Oydin Hojiyeva boya juda goʻzal sheʼr oʻqidilar. Men ahli majlis nomidan Oydinxondan iltimos qilaman.

Botirxon Valixoʻjayev taklifini barcha maʼqullaydi.

– Mustaqilligimiz eʼlon qilinganidan butun xalqimiz gʻururlanib, faxrlanib, qalblarimiz iftixor tuygʻulari bilan toʻlib-toshib turgan shunday shukuhli kunda, bu yorugʻ dunyoga kelgan bolaning umri uzun, rizqi ulugʻ boʻlsin! Biz Navoiy bobomiz bois cheksiz faxr-u iftixor tuyub yashaymiz. Kelinglar, shu chaqaloqqa iftixor deb ism qoʻyaylik!

Shunday qilib, Toshkent-Termiz yoʻlidagi salkam ellik metr balandlikdagi adirda buyuk Alisher Navoiyning muazzam haykali qad rostlaydi. Shundan buyon har yili 9-fevralda ana shu haykal atrofi gavjum boʻladi, nafaqat yaqin atrofdagi qishloqlardan, balki butun tumandan hazratning, umuman, adabiyot, sheʼriyatning muxlisari jam boʻladi. Kelin-kuyovlar ulugʻ shoir dahosiga hurmat koʻrsatib, poyiga gullar qoʻyadi. El-u yurtga qilingan halol, begʻaraz mehnat samarasiz ketmaydi.

Alisher Navoiy hazratlari bunday degan: *Nafʼing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu nafʼ oʻzunga koʻprakdurur.*

...Har gal kindik qonim toʻkilgan qadrdon qishlogʻim Mingbuloqqa qarindosh-urugʻlarni koʻrgani, ota-onam, akalaram, opalarimni ziyorat qilgani borar ekanman, koʻpincha, Hazratning adl haykali poyida kudek charaqlab, el xizmatiga kamarbasta tadbirkor va kitobxon iftixor qarshi oladi.

JAHON AYVONIDA

TRAMPDAN YANA TAQIQ

AQSh prezidenti 12 davlat fuqarolarining AQShga kirishini toʻliq taqiqlash haqida farmon imzoladi. Bu qarorni u oʻzining “Truth Social” ijtimoiy tarmogʻida maʼlum qildi.

Bu roʻyxatga Afgʻoniston, Myanma, Chad, Kongo Respublikasi, Ekvatorial Gvineya,



Eritreya, Hayiti, Eron, Liviya, Somali, Sudan va Yaman davlatlari kiritilgan. Qoʻshma Shtatlarda qonuniy doimiy rezidentlar va amaldagi viza egalari uchun istisno bor.

DUNYODAGI ENG YIRIK
SOVUTISH TIZIMI

Saudiya Arabistoni Haj ibodatini ado etish uchun ziyoratchilar toʻplanayotgan Makkadagi Masjidul-Haromda dunyodagi eng katta sovutish tizimi ishga tushirilganini eʼlon qildi.

Bu mavsumda Haj amalini bajarish uchun mamlakatga 1,4 milliondan ziyod ziyoratchi tashrif buyurdi.

“The National” nashri xabariga koʻra, yangi



“VTCNG” gazetalar guruhi xabar berishicha, Qirolik ketma-ket yettinchi yil davom etayotgan qurgʻoqchilik tufayli chorva mollari taqchilligi muammosiga duch kelayotgani sabab bu gʻayrioddiy chaqiriq eʼlon qilindi.

Bolgariya yevro hududiga qoʻshilish uchun zarur boʻlgan barcha talablarga, jumladan, narxlar barqarorligi va moliyaviy intizomga javob bergan. Biroq bolgarlar bu masalada ikki toifaga boʻlingan. Koʻpchilik parlament binosining tashqarisida norozilik namoyishlarini oʻtkazmoqda.

VAQTINCHALIK HIMOYA MUDDATI
UZAYTIRILADI

Yevrokomissiya Yevropa Ittifoqidagi ukrainalik qochqinlarning himoyalangan maqomi yana bir yilga uzaytirilishi lozimligini maʼlum qildi.



Ukrainadagi urush davom etayotgani va beqaror vaziyatni inobatga olgan holda Yevropa Ittifoqi ijroiya organi himoya muddatini 2027-yil martgacha uzaytirishni taklif etdi. Aʼzo davlatlar kelasi haftadagi yigʻilishda ushbu taklifni tasdiqlashlari mumkin.

Komissiya maʼlumotlariga koʻra, urush boshlanganidan buyon Ukrainadan Yevropa Ittifoqiga 4,3 milliondan ortiq kishi qochib oʻtgan.



Boshlanishi 1-sahifada.

Tengqurlari maktabni tugatgach, aksariyati pedagogika oliygohlariga hujjat topshirganida, u poytaxtdagi qishloq xo'jaligi va qurilish sohasi uchun muhandislar tayyorlash institutiga o'qishga kirganining o'zi o'sha davr uchun qanotli bir doston edi.

Talabalik oson bo'lmaganini Opa shunday xotirlagandi: "Otam do'xtir, onam ketma-ket tug'ilgan to'rt nafar qizni boqish uchun kolxozda ishlash majburiyatida qolgan bo'lsalar-da, ularning topganlari urvoq bo'lmaganki, talaba vaqtim yozgi ta'tilga kelganimda oilamga og'irligim tushmasligi uchun o'zimcha "tadbirkorlik" qilganman. Uyimizga yaqin yerdagi ko'lda "qora-lang" degan o'simlik o'sardi. Uning novdasini juda chayir va baquvvat bo'ladi, avgust oyida pishib yetiladi. Ana shu qoralangni terib, undan chovli yasardim. Shu buyumni bozorga chiqarib, har donasini bir so'mdan sotardim. Bu chovildan o'sha vaqtda uy bekalarini qaynab turgan qozondan chuchvara, tuxumbarakni suzib olishda foydalanishardi. Qisqa mavsumda ikki yuz ellik-uch yuz rubl pul topardim. Bu pul arzimastipendiya bilan kun kechiradigan talaba uchun katta mador bo'lardi – Yangi yilgacha uydan bir tiyin olmasdim. Qishki ta'tilga kelganimda onamga yordamchi bo'lib, tunlari turli mato qirgimlaridan chaqaloqlarga do'ppi tikardik..."

Oliygohni qizil diplom bilan tugatgach, ish faoliyatini Narimonov nomli jamoa xo'jaligida boshlaydi – unga hisobxonadan ish berishadi. O'sha davrda muhandis ayollar juda kam bo'lgan, ularni qishloq xo'jalik texnikasiga yaqinlashtirishni yoqtirishmagan...

Shu yillari qishloq maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish uchun yangicha ta'lim tashkiloti tuziladi. SPTU, ya'ni kasb-hunar bilim yurtida qishloq xo'jaligida zarur yigirmaga yaqin kasb va hunarlar o'rgatilgan.

Opa muhandis o'laroq ayni shu dargohda yoshlarga texnika sirlarini o'rgatishga kirishadi. Bu yerda uning tashkilotchilik, tashabbuskorlik sifat-u fazilatlarini tez ko'zga tashlanadi va ko'p o'tmay bilim yurti direktori o'rinbosari, so'ng esa direktor lavozimiga tayinlanadi. O'sha yillari tumanida yagona bilim yurti u yozda tursin, o'rta maktablarda ham direktor vazifasida ishlayotgan xotinqizlar barmoq bilan sanarli bo'lgan.

Aynan odamlarni uyushtira bilishi, yangilikka o'chligi, teran bilimi bois endigina o'ttizdan hatlagan Opani Narimonov nomli jamoa xo'jaligi raisi o'rinbosari, so'ng tuman partiya qo'mitasi kotibasi vazifasiga ma'qul ko'rishadi. Bog'ot tumani ijroiya qo'mitasi raisasi, tuman partiya qo'mitasi ikkinchi kotibasi bo'lgani ortida ham ana shu ishchanlik, kuyunchaklik fazilatlarini yetibdi.



“Har bir odam bolaligidan o'z xalqining vakili bo'lish uchun dunyoga kelganini bilishi va shu sharaflil vazifani zimmaga olishga o'zini tayyorlashi kerak.

Rasul HAMZATOV

YAXSHILAR YODI

O'zimiz bilgan, tanigan insonlarning qadri haqida ba'zan ular bu dunyoni tark etgandan keyin o'ylay boshlaymiz. Chindan borning qadri u yo'qolgandan keyingina his qilinadi...

2021-yilning 28-iyuli. Taniqli olim va murabbiy, ko'plab jurnalistlarning ustози Boybo'ta Do'stqorayev vafot etgani haqida xabar domla bilan bog'liq xotiralarimni yana qayta jonlantirgan edi. Auditoriyada ustozning jahon adabiyoti durdonalarini mahorat bilan sharhlagani va biz talabalarning deyarli barchasini darsga ohanrabodek tortib olgani ko'z oldimga kelgandi o'shanda.

Shunday samimiy va donishmand insonni tanigan, ko'rgan, undan ta'lim olishdek baxtga musharraf bo'lganlar qatorida ekanimdan cheksiz faxr tuyaman. Menimcha, domla biron bir darsga o'qituvchilik vazifasini bajarish majburiyati yuzasidan kirmasdi. Har bir saboq tafakkurimiz sarhadlarini kengaytirishga qaratilgan imkon ekanini balki auditoriyaga o'tirganimizda unchalik his qilmagandirmiz.

Domla bizga yaqin tariximiz – jaddilik davrining hali ochilmagan sahifalari borasida

OPA

Mustaqillik Opa taqdirida keskin o'zgarish yasadi – u Xorazm viloyati tarixida tumanga birinchi rahbarlikka tayinlangan ilk ayol bo'ldi.

Xorazmning so'nggi bir asrlilik tarixida katta-kichik vazifalarda ishlagan rahbarlar orasida notiqlik borasida Opaga teng keladigani bo'lmagan. Katta minbarlarda soatlab qog'ozga qaramasdan nutq so'zlar, so'zlaganda ham har bir gapni o'rniqa qo'yar, Qur'oni Karim oyatlari, sahih hadislar, ulug' allomalar-u shoirlarimiz yozib qoldirgan ibratli rivoyatlar va hikmatlar ketma-ket, o'rniida keltirilar, bu esa tinglovchilarni o'ziga



ohanrabodek tortardi. Ayni shu notiqligi qo'l ostidagi rahbarlarni uyushtirish va qo'yilgan vazifalarning ijrosi bekam-u ko'st bajarilishiga xizmat qilardi.

Bir suhbatda Opadan notiqlikni qayerdan o'rganganlarini so'radim. Opa kuldi: "Notiqlikka o'qigan, o'rgangan joyim yo'q. Ishim, egalagan vazifam taqozosi o'z-o'zidan o'rgatdi voizlikni".

Opa odatiga ko'ra kamtarona fikr aytdi. Aslida notiqlik san'ati shaxsdan ko'p o'qish va eng muhimi, uqishni talab qiladi.

U kishi mutolaa borasida ham boshqalarga o'rnak edi. Esimda, Sohibqiron Amir Temurning "Tuzuklar"i ilk bor "Sharq yulduzi" jurnalida chop qilingani haqida eshitganida qo'ng'iroq qilib "Juda ajoyib xabar eshitdim. "Temur tuzuklari"ni chop qilishibdi. Yetti iqlim hukmdorining saltanatni boshqarishdagi tuzuklarini o'qish, o'rganish hozirgi rahbarlarga juda kerak!" degan edi. Qarangki, o'sha jurnalni topib, Opaga sovg'a

qilganimda peshonasiga surtgani ko'z oldimda...

Opa ayol boshi bilan butun bir tumanga hokim bo'lgan davr og'ir zamonlar edi. Sobiq Ittifoq parchalangan, iqtisodiy aloqalar izdan chiqqan, odamlar ust-bosh-u hasham emas, bir qop un topish majburiyatida qolishgan edi. Hatto biror xonadon boshiga nogoh musibat tushganida, bir quloq kafanlik topish dushvor bo'lgan o'sha kezlarda...

Opaga havas qilib bo'lmasdi. Erta tongdan xo'jaliklarni aylanib, ekinlar parvarishini nazorat qilib, shu orada yo'l-yo'lakay fuqarolar murojaatini

ikkisi Opa tumanga rahbar bo'lgan yillari bunyod etilgan, uchinchisining poydevori qurilgandi. Opa xomashyo sotishdan o'zbek dehqonining biri ikki bo'lmashligini bilardi. Mustaqillikning ilk davri iqtisodiy og'ir zamonlarda ham xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish masalasini kun tartibiga qo'yib, hatto butun mintaqada ilk va yagona tibbiyot ashyolari ishlab chiqaradigan qo'shma korxona ochishga imkon topgan edi.

O'z atamasidan kelib chiqib, tumanni tom ma'noda bog'lar yurtiga aylantirish g'oyasi va tashabbusi ham shu davrda maydonga tashlangan, halihamon paxta yakkahokimligi yakun topmagan esa-da, hududda bog'dorchilik fermerlari faoliyatini tashkillash va yetishtirilgan meva – uzumlarni chetga eksport qilish-u uni qayta ishlash boshida turgan ham Opa edi. Bugun bog'otlik bog'bonlar yetishtirgan shirin mevalar Yevropagacha yetib borayotir.

Tuman markaziga kiraverishda o'rnatilgan ayol haykali (haykaltarosh ushbu asarida aynan Opa qiyofasini aks ettirgan) qo'lida savat-savat mevalar tutgan holatda tasvirlangani bejiz emas.

Opa ketma-ket ikki chaqiriq Oliy Majlis deputati etib saylangan. U kishi yurtimiz manfaatlarini, fuqarolar haq-huquqlarini himoya qiladigan yangi qonunlar chiqarishda g'oyatda faol bo'lgani, sessiyalarda so'zga chiqib, qonun loyihalariga muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar bildirganini sobiq deputat hamkasblari ko'p bora e'tirof etishgan.

Opa o'n yil Bog'ot tumani hokimi bo'lib ishlagach, tajribasidan yanada kengroq foydalanish maqsadida uni viloyat hokimining iqtisodiy, (keyinchalik xotin-qizlar) masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasiga loyiq ko'rishdi. Ushbu vazifalarda ishlash bilan bir vaqtda Opa ikki marta Oliy Majlis Senati a'zosi bo'lib saylangan.

Shakarjon opaning deputat va senator sifatidagi faoliyati alohida mavzu. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligi tariximizga raqam qilinganki, bu keyingi va hozirgi deputat va senatorlar uchun o'ziga xos ibrat maktabidir.

Opa nihoyatda kamtar, odamlar bilan muloqotda samimiy va xush-tabiati edi. Bu xislat u kishining kiyinishida ham yaqqol aks etardi. Ustiga eng oddiy matodan ko'ylak kiyar, boshida hamisha o'ziga yarashgan odmi ro'moli bo'lardi. Esimda, opa viloyat hokimi o'rinbosari bo'lib ishlayotgan kezlarda bir qalamkash ukamiz qiziq gap aytgandi: "Kecha Opani ko'rdim. Ustida Bog'otda hokim vaqtlarida kiyib yuradigan eski paltosi. Yonida turgan katta-kichik mansab egalari bo'lgan ayollarda chet elning hozirda rusum bo'lgan qimmatbaho kiyimlar.



Opaga baribir havasim keldi..."

Odamlarni mansabi, ijtimoiy mavqeyiga qarab ajratmas, barchani go'yo yaqin birodari kabi ko'rardi. Oddiy misol: hali rayqo'm kotibasi bo'lib ishlagan vaqtlarida kattalashib qolgan oilasi uchun paxsadan uy tiklatgandi. Imorat tiklashga Dehqonbozor qishlog'idan Yusufboy Sa'dullayev degan usta bosh bo'lgan. Oddiy qishloq odami yuqori lavozimdagi rahbar imoratiga ustalikka ma'qul ko'rilganida hayajon va xijolatdan qo'li ishga qovushmay qolgan ekan...

O'sha inson o'ttiz besh yilki, xonadonning qadrdoniga aylangan. Oila-da bo'ladigan to'y va boshqa marosimlarda hamisha davra to'riga o'tqaziladi. Opa dunyodan o'tgach, ustaga bo'lgan hurmatni farzandlari onaizorlari darajasida saqlab qolishdi...

Shakarjon Xo'janiyozova ko'p yillik fidoyi xizmatlari uchun davlatimiz rahbari tomonidan ikki marta orden bilan taqdirlandi.

Muhtaram Prezidentimiz Opa dunyodan o'tganida ta'ziyanoma yubordi. Bu ta'ziyanoma janozaga saf tortgan minglab odamlarga o'qib eshittirilganida kekka kishilarning soqollarini ko'z yoshlari yuvganiga guvohman.

Opa haqida ko'p va ko'p yozish mumkin. Vafotidan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, bu inson haqida ikkita kitob chop qilindi. Va hali yana ko'p kitoblarni yozilajak.

Yaqinda muhtaram Prezidentimiz Xorazmda bo'lganida yana Opani hamda markaziy ko'chalardan biriga Shakarjon Xo'janiyozova nomini berish taklifini bildirdi. Yetmish yilligini keng nishonlash bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berdi.

Million nufusli voha xalqi qo'l

ochib, yurt rahbari haqiga duo qildi.

Umrining qirq besh yilga yaqinini el-yurt tashvishiga baxshida qilgan, to'rt farzandni tarbiyalagan Opa yuzlab, minglab onalar uchun ham ibrat maktabi bo'la oladi.

U kishining umr yo'ldoshi Ozod aka vohada sportning bir qator turlarini rivojlantirish va yosh avlodni sog'lom turmush tamoyili asosida tarbiyalashga hayotini bag'ishlagan inson.

Bir so'z bilan aytganda, Opa oilaviy munosabatlar, farzandlar tarbiyasi, qadim qadriyatlarini ulug'lash, Istiqlo' g'oyalarga sadoqat ruhini keng ommaga singdirish va, albatta, rahbarlik tutumlari bo'yicha o'ziga xos namunaga aylangan chin ziyoli, jaddidmonand AYOL edi.

O'tgan asrning to'qsoninchi yili o'rtalari. Opaning nomzodi Oliy Majlis deputatligiga ko'rsatilgan. Unga muqobil bo'lgan nomzodlar ham chakana shaxslar emas. Yana saylov okrugi faqat Bog'ot tumani hududi bilan cheklanmaydi – qo'shni Hazorasp va Xonqa tumanlaridan bir nechta qishloqlar okrug tarkibiga kiritilgan.

Men Opaning ishonchli vakili edim. Saylovchilar bilan uchrasuvga yo'l olish arafasida u kishi bilan ozroq gurunglashdik. O'shanda aytgan gaplarini bugungi rahbarlar ishxonalarda shior qilib osib qo'yishsa bo'lardi, deb o'ylayman: "Hech kimga dunyoni bog'lab bermagan. Bizlar ham o'tamiz, ammo shu xalq abadiy qoladi. El-ulus xotirasida qolish uchun hech bo'lmaganda bir siniq ko'ngilni butlamoq kerak. Buning uchun o'zingni sham his qilmog'ing, yurt yo'llarini charog'on qilib, o'zing yonib yashashing shart!"

Ro'zimboy HASAN

DARS BO'LGAN UMR

yonib-kuyib ma'ruza qilardi. Taqdim etayotgan ma'lumotlarining aksariyati boshqa manbalarda uchramasligi bilan qiymatli edi. Ularni domla kutubxonalar, qo'lyozmalar jam'armasi kabi turli maskanlarda zahmat chekib to'plaganini keyinroq bilganmiz. Hatto jaddi matbuoti sahifalaridagi eng kichik ma'lumot ham domlanning nazaridan chetda qolmas, ulardan katta va olamshumul hissalar chiqara oldi.

Talaba degan mardumning asosiy nishoni "baho" deb ataluvchi jodugardir. Shu matlab yo'lida darsga qatnaydi, qog'oz qoralaydi, gohi-gohida kitob ham varaqlab qo'yadi. Ayrim hollarda baho jodugari talabani ilm atalgan asl maqsaddan ulqotirib boraveradi.

Esimda, o'quv yili endi boshlangan kezlarda saboqdoshlardan biri domlanning navbatdagi darsidan keyin berilgan uy vazifasini qay tartibda bajarish haqida savol berdi:

– Domla, vazifani oq qog'ozga yozib kelaylikmi yo daftargami?

Domla odatdagi sokin, lekin o'ta teran

nigohini kursdoshimga qaratdi. Bu deyarli har kuni beriladigan navbatchi savol bo'lsa-da, javob biz kutmagan darajada ajablanarli edi.

– Buning hech ahamiyati yo'q, – dedi domla. – Agar miyaga yozish imkoniyatingiz cheklangan bo'lsa, dastro'molga yozib keling. O'qib bo'lib, qaytarib beraman, yuvib yana ishlataverasiz.

Bu javob bizga kim bilan yuzma-yuz bo'lganimizni to'la-to'kis tushunib olish uchun kifoya qildi. Ayni gaplar haqiqiy ilm minglab rasmiyatchiliklar, qog'ozbozliklar, shunchaki yo'ligagina o'ylab topilgan tartib-qoidalaridan yuqori turishini anglatgan edi...

U kishining haqiqiy ilm yo'lidagi qat'iy yo'rig'i sabab shogird tushish uchun yillab navbat kutgan nomzodlar borligiga guvoh bo'lganman.

Bir kuni bizda kurs mavzusini erkin tanlash uchun domla uch xil yo'nalishdan so'z ochdi. Mavzular shu qadar teran ochib berildiki, bizda ularning har uchalasini

tanlash ishtiyoqi paydo bo'ldi. Dunyoning qaysidir bir puchmog'ida bo'lib o'tadigan asar voqealarini domla shunchaki hikoya tarzida emas, balki har birimiz o'z hayot yo'limiz, taqdirimiz, kelajagimizni qahramonlar vositasida muvoziy (parallel) qo'ygan holda tushuntirdi.

Hammaga yaxshi tanish bo'lgan asarni o'qidik va uqdik deb hisoblaganimiz hech narsa emasligi shu suhbat-ma'ruza asnosida ayon bo'ldi. Shundan keyin tushundimki, mening o'qiganlarim, uqganlarim, bildim, deb yurganlarim hammasi bekor ekan. Bizning "o'tkir" va "teran" nazarimiz burnimizdan narini ko'rishga yetmas ekan...

Ustozni ko'pchilik jaddidshunos olim sifatida biladi. U kishining mazkur davrga oid ilmiy izlanishlari talaygina. Lekin men uning hazrat Navoiy haqidagi bir-ikki maqolasini o'qib, mumtoz adabiyot, xususan, Navoiy merosini teran idrok etadigan zabardast olim ekaniga amin bo'lganman.

Ustoz Boybo'ta Do'stqorayev bizga har qanday inson o'z yo'nalishida komillikka



intilishi, tor doirada cheklanib qolmasligi, ilmda ham, insoniylikda ham doimiy izlanishda bo'lishi kerakligi haqida unutilmas saboq berib ketdi.

G'ulom BOBOJONOV,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori



Aziza AHROROVA,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Boshlanishi 1-sahifada.

Ha, o'sha mudhish davr, ayniqsa, ayollar uchun ikki karra og'ir kechgan. Ular bir tomonda turmush o'rtog'iga qarshi tuhmat qilishga majbur etilar, qiynog'-u azoblarga chidam berayotganlari esa jonday dilbandi hayoti bilan imtihon qilinardi. Bosimlar ostida ayollar ham jismonan, ham ruhan siqovga olinar, azoblarga betinim duchor qilinardi.

Bu "tadbirlar" sobiq ittifoq NKVDning 1937-yil 15-avgustdagi "Vatan xoinlarining ayollari va farzandlarini qatag'on qilish tadbiri to'g'risida"gi 00486-sonli buyrug'iga asosan amalga oshirilgan edi. Demak, qatag'onlar yosh bolalarni ham chetlab o'tmagan. Ushbu hujjat asosida 1938-1939-yillarda sho'rolar saltanatidan 18 mingga yaqin xotin-qiz "vatan xoini"ning oila a'zosi sifatida qamoqqa olinib, maxsus lagerlarga jo'natiladi. Sovet repressiyalari tarixida alohida qayd etiladigan, ayollarga qarshi yo'naltirilgan jazo siyosatining ayanchli ramzlaridan biri A.L.J.I.R lageri edi.

Ta'kidlash joiz, sovet jazo mashinasi tomonidan ishlab chiqilgan 00486-sonli maxsus hujjat inson huquqlarini poymol qilib, vahshiyona qiynoqlarga yo'l ochib bergan. Unda faqat jazolash, qatag'on qilish va jamiyatni qo'rqitish maqsadi yotar, hibsga olingan shaxsning barcha mol-mulki to'liq musodara qilinishi kerak edi. Shu yo'l bilan ayblanuvchining oilasi yashash manbayidan mosuvo qilinib, orzu-umidlari ham tortib olingan.

Tasavvur qiling, sudlanganlarning rafiqalari "ijtimoiy xavfli shaxslar" sifatida belgilanib, omadi chopsa, kamida 5-8 yilgacha ozodlikdan mahrum etilardi. Yanada qayg'uli holat bolalar taqdiriga daxldor. Mahkumlarning farzandi yoshi, "xavfli darajasi" va "tarbiyalanish imkoniyati"ga qarab NKVD lagerlari, axloq tuzatish muassasalari yoki Xalq ta'limi komissarligining maxsus rejimidagi bolalar uylariga joylashtirilardi.

Ko'rib turganingizdek, o'sha buyruq sovet hukumatining o'z rejimini mustahkamlash yo'lida jamiyatning eng himoyasiz qatlamiga – ayollar va bolalarga qarshi shafqatsiz choralar qo'llaganini yaqqol namoyon etadi. Shunday usullar, jazolar jamiyatni umumiy

qo'rquv va tahlika holatida ushlashning muqammal mexanizmlaridan biriga aylangan edi.

Keyinchalik, 1970-yillarda sovet davri tarixini o'rganayotgan Feliks Chuyev "katta qirg'in" voqealari yuzasidan SSSR Xalq komissarlari kengashi raisi Vyacheslav Molotov bilan suhbatlashish imkoniga ega bo'ladi. "Nega ayollar va bolalar qatag'onga duchor qilindi?" deb so'raganida Molotov shunday javob beradi: "Ularni cheklash kerak edi. Aks holda, turli shikoyatlar urchib ketishi mumkin edi".

Bu qisqagina javob o'sha davrda sovet hukumati tomonidan muammoga qanday qaralgani yuzasidan ma'lum tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ko'rmaysizmi, ayollar va bolalarga nisbatan qatag'onni asoslash uchun hatto shikoyat qilish ehtimolining o'zi yetarli sabab deb topilgan.

soxta ayblovlarni qat'iy rad etib, turmush o'rtog'ining faoliyati haqida tayinli ma'lumot berishmagan.

Endi "A.L.J.I.R" (Асмолинский лагерь жён изменников родины)ga to'xtalsak. Qozoq'istonning Qarag'anda hududida joylashgan ushbu lagerda 00486-sonli buyruq asosida 1938-1946-yillar davomida "Vatan xoinlarining oila a'zolari"dan tashkil topgan 6,5 ming nafar ayol jazo o'tagan. Uning vujudga kelishi tasodif emas, balki maqsadli siyosat natijasi edi.

Lagerning tashkil etilishigacha bo'lgan tarixiy sharoitga nazar tashlasak, 1931-yilda Akmolinsk shahri yaqinida Saratov viloyatidan ko'chirilgan 28,5 ming dehqon oilasi uchun bir necha maxsus aholi punktlari barpo etilgan. Ular orasida 26-sonli Malinovka qishlog'i asosiy maskan hisoblangan.



Aybsiz ayollar qamoqxonasi

Hujjatlardan ayon bo'ladiki, qamoqqa olingan ayollarning ko'pchiligi faqat bir marta so'roqqa chaqirilgan va ularning barchasiga deyarli bir xil: "Eringiz va tanishlari haqida ma'lumot bering", "Uyingizga kimlar kelgan?", "Nima maqsadda yig'ilgan?", "Suhbat mazmuni nimadan iborat edi?", "Siyosat muhokama qilinganmi?" kabi shunga o'xshash savollar berilgan.

So'roqlar murosasiz va ayblovlar tarzida olib borilganiga qaramay, ayollarning deyarli barchasi siyosiy suhbatlar bo'lmaganini ta'kidlashgan. Tabiiyki, bu javobdan qoniq-magan tergovchilar so'roqni yanada bosimli va tahdidli savollar bilan davom ettirib, ularni sarosimaga solishgan: "Eringiz aksilingilobiy faoliyati uchun qamalgan. Siz bu haqda nima deya olasiz?", "Siz eringizning bu faoliyatini bila turib, tegishli organlarga xabar bermaganingiz uchun javobgarsiz. Buni tan olasizmi?" Turgan gapki, bundan muddao ayollar og'zidan o'ta zarur "gunoh e'tirofi"ni sug'urib olish bo'lgan. Harchand bosim o'tkazishmasin, ayollar bunday

1937-yil avgust oyida 26-punktdagi aholi majburiy ravishda boshqa joylarga ko'chiriladi. Bu yerda esa NKVDning Karlag tizimiga qarashli R-17 raqamli majburiy mehnat lageri tashkil etiladi. Ko'p o'tmay, aynan ushbu lager "A.L.J.I.R" nomini oladi. U yerda faqat "vatanga xiyonat qilgan" deb tang'a bosilgan erkaklarning mutlaqo aybsiz rafiqalari saqlangan.

Mahkumalar og'ir mehnatlarga tashlangan. Ularning ko'pchiligi lager hududida tashkil etilgan tikuv fabrikasi tizimida holdan toyguncha ishlashga majbur qilinlar, baxtiqaro ayollar Moskva, Leningrad, Kiyev kabi yirik shaharlardan kelgan savdo muassasalari buyurtmalarini bajarishardi.

Bu holatni, aniqrog'i, ayollarning g'am-anduhli kechinmalarini chuqurroq anglash uchun faqat rasmiy hujjatlarni emas, balki mahkumalarning xotiralarini, ular tomonidan o'sha davrda yaqinlariga bitilgan maktublar va hikoyalarni ham o'rganish zarur. Chunki aynan shu shaxsiy manbalar orqali lagerdagi dahshatli sharoit, inson qadr-qimmatining

ayovsiz toptalishi va ayollar yuragida qolgan ayanchli ruhiy fojialar to'laqonli anglashiladi.

Ulardan biri – Galina Koldomosova, lager haqida yozadi: "Bu qishloqda – har burchagida to'rtta minora qad rostlagan tikarli sim qafasi ortida faqat "Vatan xoinlarining" xotinlari yashagan".

Mahbusalardan yana biri – Yuzipenko degan ayol o'z xotiralarida shunday keltirib o'tadi: "Avval qo'l mehnati bilan toshloq yerda bog' yaratdik, keyin besh ming gektarga bug'doy ekdik, 250 bosh sigirga mo'ljallangan ferma, tikuvchilik fabrikasi qurishda it azobini ko'rdik. Fabrikada 3,5 ming mahkuma ishlatilgan. Lager hovlisi 18 gektarni tashkil qilardi. U yerda kungaboqar, makkajo'xori, javdar, bug'doy ekib, quldek ter to'kardik".

Malseva familiyalari yana bir jabrdiyda shunday xotirlaydi: "Hovlida mahbusalar 14-15 soat ishlashar edi, ertalab soat 04:00 da uyg'otilar, yarim kechasi yotoqqa qaytilardi. Charchoqdan oyoq ko'tarishga ham majolimiz qolmas, dam olish kunisiz ishlar edik".

Aslida, ayollarni lager hayoti emas, balki farzandlari, erlari, qarindoshlari va do'stlari taqdirining mavhumligi umidsizlikka tushirar, ularning ba'zilar esa qochishga harakat qilardi.

"A.L.J.I.R"da o'zbek ayollari ham og'ir azoblarni boshdan kechirgan. Ular orasida Tojixon Ahmedova, Halima Yo'ldoshboyeva, Amina Ibragimova, Rahbar Shermuhammedova kabi yurtdoshlarimiz ham bor edi.

Eng alamlisi shundaki, ular qamoqqa olingan paytda farzandlari ajratib olingan, ayrim hollarda bolalar qaysi muassasaga olib ketilgani haqida ma'lumot ham berilmagan.

Arxiv hujjatlariga ko'ra, 1937-yil 15-avgustdan 1939-yil yanvar oyigacha sobiq ittifoq bo'ylab jami 25 342 nafar bola oilasidan ajratib olingan. Ulardan 22 427 nafari Xalq maorifi komissarligi qaramog'idagi bolalar uylari va mahalliy bog'chalarga joylashtirilgan.

Bu bolalarning aksariyati o'n besh yoshga ham to'lmagan edi. Undan katta yoshda bo'lganlar "ijtimoiy xavfli" deb baholalanib, jazoning yanada qattiq shakli – qamoq va sud hukmiga duchor qilingan. 00486-sonli buyruq sovet davridagi qatag'on siyosatining eng shafqatsiz va insoniyatga xos bo'lmagan asl basharasini ko'rsatadi. Bu jirkanch hujjat jamiyatda umumiy qo'rquv, beqarorlik va muhtojlik muhitini vujudga keltirib, nafaqat ayblangan shaxslarni, balki butun boshli oilalarni, ayollarni, bolalarni ham ma'naviy va jismoniy halokatga yetakladi. Bunday dahshatli qatag'onlar jamiyatning sog'lom ruhiyatini izdan chiqardi, avlodlar ongida og'riqli jarohat qoldirdi.

Bugun ana shu fojialarni tarixiy va axloqiy saboq sifatida qayta tahlil qilish zarur. Arxiv hujjatlari, shaxsiy xotiralar va tarixiy manbalar orqali bu adolatsizliklarni fosh qilish tadqiqotchilar oldidagi ulkan mas'uliyat bo'lishi barobarida, bunday adolatsizliklarga nisbatan befarq turmaslik har birimizning ma'naviy burchimizdir.

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda.)

Nosir Saidov (Nosir Sharifxo'jayevich Saidov) – 1901-yili Toshkentda tug'ilgan. Millati o'zbek. "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zosi. Maorif xalq komissarligida ishlagan. 1927–1930-yillarda Andijon okrug maorif bo'limi mudiri lavozimida ishlagan. Nosir Saidov O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi rahbarlari bilan birga Toshkentda GPU xodimlari tomonidan 1930-yil 29-iyunda qamoqqa olingan. U "G'ayratilar", "Milliy istiqlol" tashkilotlarining a'zosi sifatida ayblangan. Moskvada 1933-yil 31-martda bo'lib o'tgan sud Nosir Saidovni avvaliga o'limga, so'ngra jazo o'zgartirilib 10 yil qamoqqa hukm etgan.

Abdug'affor Abduraimxo'jayev – 1871-yili Andijon shahrida tug'ilgan. "Sho'royi Islom" aksilingilobiy tashkiloti a'zosi bo'lganlikda ayblanib, 1921-yil 3 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Aholi orasida mag'lubiyatchilik kayfiyatidagi aksilingilobiy targ'ibot olib borgan uchun O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-band bilan O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "uchligi"ning 1937-yil 16-noyabrda yig'ili-shida 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 19-noyabr-dan hisoblangan.

Mo'min Karimboyev – 1897-yili Stalin rayoni (hozirgi Shahrixon tumani)da tug'ilgan. "Sho'royi Islom" tashkilotining sobiq a'zosi bo'lgan. Bosmachilar to'dasiga rahbarlik qilgan. VKP(b) sobiq a'zosi, millatchi aksilingilobiy harakati uchun partiyadan o'chirilgan. Qamoqqa olingan vaqtda tayinli mashg'uloti bo'lmagan. Bir necha yillar sovet tuzumiga qarshi qurolli kurash olib borganlikda, aholi orasida hukumatning mag'lubiyati to'g'risida targ'ibot tarqatganlikda, chet elga chiqib ketish haqidagi qarashlarni targ'ib etganlikda, aksilingilobiy isyon ko'tarish hamda sovet idoralariga zarar keltirish bilan shug'ullanganlikda ayblangan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "uchligi" tomonidan 1938-yil 13-fevralda otuvga hukm qilingan.

Saidnosir Mirjalilov – 1884-yili Turkiston shahrida tug'ilgan. O'z zamonasining ilg'or kishilaridan biri bo'lgan. Toshkentga kelgach, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, aka-uka Norbekovlar, Abdulhamid Cho'ipon bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Turkiston shahrida birinchi bor jadid maktabini ochgan. 1914–1917-yillarda Turkistondagi ko'zga ko'ringan boy va savdogarlardan biri sifatida mashhur bo'lgan. Turkiston shahar dumasi a'zosi. Saidnosir Mirjalilov ikki yuz ming rubldan ortiq sarmoyasini Turkiston muxtoriyati hukumati uchun hadya qilgan. Turkiston muxtoriyati tashkil bo'lgach uning xazinachisi bo'lgan.

1925-yil 12-dekabrda Toshkent shahar Tarnovboshi mahallasidagi xonadonida hibsga olingan. Solovsk orollariga surgun qilingan. Uch yillik qamoq muddatini o'taganidan keyin 1932-yili yana besh yil muddatga qamalgan. 1937-yil 22-iyulida takroran hibsga olinib, o'sha yilning 25-oktyabrda otilgan.

Qudratulla Mag'zumov – 1896-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1930-yil 14-aprelda "Milliy istiqlol" tashkilotining 14-soni sifatida Said Akrom Said Azimboyev, Qudratulla Mag'zumov, Parpixo'ja Erka-xo'jayev, Said Abdulla Said Azimboyev, Lutfulla qori Abdullayev, Yoqubxo'ja Bahreddin Xo'jayev, Mo'nom Musayev qayd etilgan. Qudratulla Mag'zumov SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi maxsus kengashining 1940-yil 19-avgustdagi bayonnomasida sovetlarga qarshi faoliyati uchun 5 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1938-yil 23-iyuldan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi
(Davomi kelgusi sonda.)

YURT QAYG'USI

Xalqimizning sevimli adibi Abdulla Qahhor o'zining tarjimai holiga bag'ishlangan "Ozgina o'zim haqimda" maqolasida: "Mening adabiyotga maylimni payqagan va bunga e'tibor qilgan kishi ona tili muallimi Muhammadjon Xoliqiy bo'ldi", deb yozadi. Bu odam adabiyot muxlisi bo'lib, "Adib" ijtimoiy va adabiy jurnaliga bosh-qosh edi.

Muhammadjon Xoliqiy XX asr boshlarida Turkistonda keng yoyilgan ilg'or jadidlik harakati-niing taniqli vakili, fidoyi muallim va o'tkir publistsistlardan biridir. U 1890-yilda Ho'qand shahri-niing Sarbahodir mahallasida Mavlono'y madrasasi-niing mudarrisi Abdulxoliq Abduvahhob o'g'li oilasida dunyoga kelgan. Muhammadjon o'z zamonasining talablari bo'yicha yaxshi ta'lim olgan. Madrasani tugatgandan so'ng o'zini muallimlikka bag'ishlab, tez orada Qo'qonning ilg'or ziyolilaridan biri bo'lib tanilgan. Qahramonimiz Abdulvahhob Ibodiy, Ashurali Zohiriy, Po'latjon Qayumov, Hamza Hakim-zoda Niyoziy, Ibrohim Davron, Salohiddin Majidiy, Obid-jon Mahmudov kabi jadidlik harakatining taniqli vakillari bilan oshno va hammaslak bo'lib, xalqimiz orasida ma'rifat tarqa-tishda jonbozlik ko'rsatdi.



1913-yilda Muhammadjon G'alchasoyda "usuli jadid" mak-tabini ochdi. Bu maktabda nafaqat diniy darslar, balki dunyoviy, ya'ni jug'rofiya, tibbiyot, hatto rus tili ham o'rgatildirdi. Maktabning shuhrati butun muzofotga yoyilib, o'quvchilar soni ortib borardi. Xalqni jaholat va zulm iskanjasida tutishni xohlagan chor Rossiyasining mustamlakachi ma'murlari bir necha marta maktabga kelib, har yoqni tintib, ba'zi fanlarni o'qitishni taqiqlar edi. Bu haq-da domlaniing shogirdlaridan biri O'zbekiston xalq shoiri Char-xiyniing xotiralarida shunday deyiladi: "Muhammadjon Xoliqiy ta'qiblarga qaramay, faoliyatini davom ettiravergan. Ayni paytda

u o'tkir publistsist sifatida ham tanila bordi. U 1914-yildan bosh-lab "Sadoyi Farg'ona", "Sadoyi Turkiston" gazetalarida o'zining bir qator maqolalari bilan qatnashdi. Mazlum xalqni og'ir ahvoldan qutqarmoq masalasi uning asosiy mavzusi edi. U "Oltin tara-f" maqolasida ilm-ma'rifat, h'azro hamjihatlilik tufayli xalqimiz hayotini yaxshilash mumkin de-gan fikrni ilgari surdi.

1917-yilda u dastlab G'al-chasoy bo'yidagi Oxundevon madrasasida maktab tash-kil etdi. 1918-yilda xarobaga aylangan madrasaning qayta obod bo'lishi va ilm maskaniga aylanishida fidoyilik ko'rsatdi. Maktab rahbari sifatida o'sha og'ir yillarda bolalarni o'qishga

jalb qilib, ularga savod o'rgatib, dunyoni tanitishda domla ko'p amaliy ishlar qildi. 1920-yilda Qo'qonda pedagogika bilim yurti tashkil etilganda shaharning ilg'or muallimlaridan biri sifatida Muhammadjon Xoliqiy ham ishga taklif qilinadi. Bu yerda ona tili va adabiyot darslaridan bo'lajak muallimlarga saboq beradi, tarbiyachilik qiladi.

1926-yilda pedagogika bilim yurti Farg'ona shahriga ko'chi-rilgandan so'ng savodsizlikni bitirish kurslarida ishladi. Biroq 1927-yilda jadidlarga qarshi boshlangan ta'qib Muhammadjon domlani ham chetlab o'tmadi. Unga o'zi tashkil etgan maktabda ishlashni man etishdi. O'z tomor-qa va bog'ida ter to'kib, tirikchilik qilishga majbur bo'ldi.

1929-yilda Xoliqiyning Uchko'prik tumanidagi Katta qorako'l qish-log'ida ochilgan maktabga ishga chaqirishadi. Yangi kuch va g'ayrat bilan o'z ishini boshlagan domla tez orada sevimli ishidan yana judo bo'ldi. 1929-yilning kech kuzida Muhammadjon Xoliqiyning millatchilikda ayblab qamoqqa olishdi. U bir yildan ortiqroq vaqt mobaynida avaxtada o'tirdi. Jiddiy jinoyatni bo'yniga qo'ya olmaganidan so'ng 1930-yil oxirida uni ozodlikka chiqarishdi.

Biroq domlaga bundan buyon muallimlik qilishiga ruxsat berilmadi. U kolxozda bog'bonlik



Nigora TO'RAQULOVA,
Qo'qon davlat muzeyi
ilmiy xodimi

va asalarichilik bilan shug'ullandi. 1937-yilning mudhish kunlarida elni ilmi qilishga bel bog'lagan ziyoli yurtdoshimiz Xoliqiyning ma'rifatparvarlik harakatlari bois yana qamoqqa olishdi va bu safar o'n yilga hukm qilishdi. U 1938-yilning 18-noyabrda hozirgi Navoiy shahri yaqinidagi kons-lagerda tutqunlik azoblaridan 48 yoshida vafot etdi.

Muhammadjon Xoliqiydan xal-qimizning ma'naviy xazinasiga ko'plab maqolalar, 1916-yilda yozilgan "Turkiy alifbo" darsligi, "Jumhuriyat nima?" nomli riso-lalari meros bo'lib qoldi. El-yurt istiqloli yo'lida qurbon bo'lgan mana shunday millat oydinlarini xotirlash, ular qoldirgan ilmiy-ma'riy merosni o'rganib, tadqiq va targ'ib etish imkonining o'zi siz-u bizga berilgan beqiyos istiqlol ne'matidir.



ZARDA

YO'Q, SOG'AMAS BULAR, SOG'AMAS...

O'zi qirq yillik bog'bonga ma'lum: aynigan mevani tozasi bilan yonma-yon qo'ysang, qolganlari ham chiriydi. Masal bulkim, chillaki chillakini ko'rib, chumak urur. Alhosil, tanosil-u bavosil serhosil bo'ldi. Zotdor itlarga talab ko'payib, zodagonlar kamaydi. Hay, nima bo'ldi deysanmi? Balo bo'ldi, battar bo'ldi. Kel, seniyam boshingni qotirmasdan atalani bir chekkasidan yalaganday, gapniyam bir boshidan boshlayin. Axir nima qilay, gapirmay desam, soqovmasman...

Meni bilasan, asli mirishkor, qish-log'idan chiqmagan, mehnatkash, halol, g'irt fidoyi, buni ustiga o'lguday kamtarin-u kamsuqum odamman. Ozib-yozib shahar oralovdim. Johiliyat payti to'rt kun tizzasi yirtiq shim kiyib, o'zini mo'driy hisoblab, ota-onasi qo'yg'an gulday Tojimamat otini qayog'dagi Jorjga almashgan so'taqo'zi bugun bir do'mbalog' oshib, Hoji-toji bo'vopti. O'sha hamqishlog'im bilan to'qnashib qoldim. Munday gurungini olsam, ikkita belatim bor, biri xotinniki edi, bozor oralab ketgancha bedarak ketdi. Shu senga nasib qilgan ekan, bir kulishib chiqaylik deb qoldi. Qayog'danam xo'p dedim, ko'rgiligi yo'q ko'rgulikka obkirdi. Ikkov bittabittadan o'tirg'ichni ishg'ol qildik. Tomosha boshladi. Eh-he, hamma yoq sharmanda! Erkak-ayol chuvvos solib, bir-biriga irtg'ishlab yotibdi. Odam mundog' bir, kechasi bolalarni uxlatib, xotinni qulog'iga shivirlab aytishgayam uyaladigan gaplarni bular minglab sho'ring qurg'urga pullayapti. Pam-parasati uyda qopketgan olomonni og'zini ko'rsang, "xa-xa-xa, xi-xi"-dan bo'shamaydi. Erli juvonga xushtor bo'lganidan xush tortib, xo'kizday pishqirgan bemaza so'qimning shataloq otishiga butun boshli poda ishqivoz. Yeliniga latta yetmagan g'unajinlar luqmadagi



"teran ma'no'ni o'zicha anglagan bo'lib, og'zini doshqozonday ochganida yo'g'on ichagining qopqog'i ko'rinib ketadi. Har tugul jindakina uyat borakan shekilli tirnog'i panshaxaday o'sib ketgan kaftini traktirni baloniday shishgan labiga bosib-bosib oladi. Yonidagi buqachasi bo'lsa mazza qivorganidanmi yo mazza qivorish uchunmi g'unajinni soniga shappatilab-shappatilab oladi. Bularni qochirirlari mazangni qochiradi, payrovlari payingni qirqadi. Peshlavhasiga "Kamediya" deb yozilgandi, g'irt "Tragediya"-ku! Shu joyiga ustozim Mulla Xunobdan bir juft bayt keppoldi:

"Xo'rlang'on, ay bechora,
kulgig'a qolg'on kulgi,
Bezbet, beyuz,
bezotlar bozorg'a solg'on kulgi.
Egnidagi libosi yirtiq,
chechib tashlangan,
Masxara bo'lg'on kulgi,
sharmanda bo'lg'on kulgi!"

Haqqast rosti shu, bu ishtoni yirtiqqlarning hangama bazmiga qizi, singli, opasi, qaynanasi, radno'y xotinini

obkirish, hech bo'lmasa, ko'ruvchilar orasida enasi (borligi)ni ko'rsatish kerak. Poshkastalarni birinchi qatarga o'tqizib, boshla ashullangni deb, sekin kuzatsak... Ana keyin... deb tursam, Toji-hoji o'lgur biqinimga turtadi: "Anov, old o'rinlardagi og'zini bog'i qochgan zaifalar sahnadagi masxaravozni qondoshlari..." Bo'lari bo'pti, osh tagiga obdi. Aylanib-o'rgilib o'zlari oilaviy ichib yotishibdi ekan. Tovba-tovba...

O'zi qirq yillik dehqonga ma'lum: bodring palagini bossang, hosili nobop bo'ladi. Yo'q, bu jonivorlarni palagi tozamas. Bularni palagini karvon-karvon qo'tos toptagan. Anov tomosha o'lgurda boshdan oxir do'ppinni yuzga bostirib o'tirdim. Kambag'alni tuyani ustida it qopar deganlariday, do'ppi savil eski edi, tirgishi borakan. Tugmani teshigiday joydan bostirib kiriyapti-ya bu bachchag'arlar. Tag'in nima qilay, eshitmay desam, qulog'im karmas...

So'taqo'zini biqiniga niqtab-niqtab, ketaylik deyman. U bo'lsa, jim o'tir nodon, madaniyatli bo'sang-chi, deydi. Madaniyatni anavi sahnadagilardan

so'ra, jo'ra, deyman. Keyin bilsam, uyidan ilon, ko'zidan chipqon chiqqanlar kunda shunda ekan. Bu eng chiptasi chandon, bozori chaqqon shodon-u nodon tushadurg'on tomoshayi olomon ekan. Ko'tar bozorto'rvangni, dedim-da shart turib, jo'navordim. Yo'q, sog'amas bular, sog'amas...

Ammo u yog'i battar bo'ldi. Bu bo'shang-u satang, lapashang-u boshyalangni kasopati yosh-u qariga birdek uribdi. Hammasini qo'lida tilpon. Tilvizr yoqsang ham shular kalla qo'y-yapti, o'chirib qo'ysang ham shular... Bir tomonga qarasang, biri "Olg'a, ahmoqlar, biz dunyoni qo'lga olamiz!" desa, boshqa tomonda boshqasi "Man Yetimxonman" deya olti oy popirisda dudlangan pigurasini ko'z-ko'zlaydi. Kallasi yo'q keti bilan maqtanadi deganlariday, qornini maqtab kerilganlari qancha. Tag'in kap-katta xotinar mehmoni bilan maqtanganiga nima deysan? Ehe, bularni dastidan dod deb boshingni changallab tursang, biri birovini silab-siypab, jo'layadi: "Bormi og'riq?! Ha, otam? Bormi?" Yo'q, sog'amas bular, sog'amas...

Targ'il bir govmish chiqib, "Shuncha ko'z suzsangiz ham buqangiz ipini uzolmayaptimi? Unda mana bu "Omuxta" aynan siz uchun! Uni kuni-jara bilan aralashtirib bering. Tezda ishtahasi ochilib, shuluxaga talpinganday talpinadi sizga", deydi. Hah, enalarini emsi-in, shuyam gap bo'ldimi endi?

Yana bir go'rso'xta tunov kun ziyoratgo'hdagi chashmada umrguzaronlik qiladigan jonon baliqlarga bir otim nos tashlavord. Bechoralar non tashladimikan, deb laqqa-laqqa yutishdi. Ana endi anov maxluqni tirjayganini ko'ring. Kammitda o'ziga o'xshagan xudobexabarlar yig'ilvilib, shu qilmishini olqishlay ketdi-ya! Xullas, bir tomondan ular bo'ldi, bir tomondan biz bo'ldik, rosa tepalashdik. Faqat onadan so'kish bo'lmadi. Qolgan barini aytishdik. Sheriging hakka bo'lsa, maqtaganing go'ng bo'lar deganday, tomoshaqovoglar uni g'olib saylashdi. Yo'q, sog'amas bular, sog'amas...

Bir qiz chiqib ko'proq layk yig'ish uchun o'ynash-o'ynash o'ynayapti. Endi o'ylab ko'raylik. O'sha qizgina yillar o'tib, ona bo'ladimi? O'g'il ko'rsa, ori kelmaydimi? Qiz ko'rsa, onasini ko'rib qizini ol, deyishmaydimi? Bolalari ming qilsayam, onam shu, deb hurmatini joyiga qo'yar, mayli. Lekin ularning tengdoshlari bolalarga qiya ko'z bilan qaramaydimi? Yillar o'tib, qaynona bo'lmaydimi qizgina?

Bu jonivorlarga qaraydigan joni borlar bormi? Hay, qayt, ekinni payhon qilasan, deydigan yo'qmi? Yo hamma qarovchilar egniga kastm-shim ilingan, boshiga shlyapa qo'ndirilgan cho'pakmi? O'zi qirq yillik dehqonga ma'lum: bezbet qarq'alar unaqalarni mensimaydi, ustiga chiqib o'tiradi. Yoqmasa, ko'rma, deysanmi? Nima qilay axir, ko'rmay desam, ko'zim ko'r emas.

BOBOQAND

Hijriy 1446-yil. Zulhijja oyining 9-kuni. Panjshanba.

Chin arafada g'amnok bitildi.

TILBILIM



BO'KADAGI KATTA ILON TARIXI

Toshkent viloyatidagi Bo'ka tumanini hamma biladi. Xo'sh, kattagina bir tuman nomini bildirgan bu so'zning asl ildizi qanday ma'noga ega?

Mahmud Koshg'ariyda bo'ka so'zi bykä shaklida berilib, "katta uzun ilon" ma'nosida izohlangan. "Devonu lug'otit turk"da bu so'z bilan bog'liq shunday tarix bor: "Maqolda shunday kelgan j'atti boshlig' j'il bykä – Yetti boshli uzun ilon. Yaboqularning eng ulug' kattalarini bu so'z bilan bykä budrij deb atalgani kabi ba'zi bahodirlarni ham bu so'z bilan ataydilar".

Demak, bo'ka so'zi bahodir, botir ma'nosini ham bildirgan. Zero, o'tmishda katta pahlavonlarni ajdarhoday deb ta'riflashgan. Baquvvat, kuchli, devkelbat kishilarni hozir ham tilimizda shunday deyishadi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"ida bu so'z bog'u shaklida bo'lib, dono, donishmand mazmunida kelgan.

Көнүл тил көни тут э билеа бөау
Ma'nosi:
Ko'ngil va tilni to'g'ri tut,

ey bilag'on dono. Qadim zamonlarda ilon donolik ramzi bo'lgan. Bu haqda manbalarda aytilgan. Boshqa xalqlarda ham shu qarash bor. Masalan, Redyard Kipling asari asosidagi "Maugli"

multfilmida katta ilon Kaa dono bo'ladi. Shu o'rinda Yusuf Xos Hojibda "bo'ka" so'zi dono ma'nosida kelishi shu kechmishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yana bir narsani aytib o'tishimiz kerak, Xos Hojibda "bo'ka" so'zi ajdarho ma'nosida ham kelgan:

Иаңан ўл бөке-тег
ўэр эркан ачар

Ma'nosi:
Dunyo ajdarho kabi yer ekan,

ya'ni ochiqadi. "Turkiy tillar etimologik lug'ati"-da "böke" kuchli, botir, qahramon, mustahkam, chayir ma'nolarini anglatishi haqida aytilgan. Bu so'zning tub ildizi mo'g'ul tilidagi böke/bex – jangchi so'ziga borib taqaladi deyilgan. Ramsted qalmoq tilidagi bök so'zi ham mo'g'ul tilidagi kabi "jangchi, atlet" ma'nosini bildirishi haqida aytib o'tgan. Tadqiqotchi olim Chig'atoy böke kuchli, qahramon ma'nolari bilan birga "dono, donishmand" mazmunini ifodalashini ham unutmashlik zarurligini uqtiradi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ba'zi hasharotlarning tuxumidan chiqadigan, qo'shqanotlilar turkumiga mansub qurt – o'qaloqni ham, ba'zi shevalarda sayg'oqni ham "bo'ka" deyishlari haqida ma'lumot bor. Lekin bu boshqa mavzu.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

ESIMIZNI KIM O'G'IRLADI?

Yoki yana TV mavzusida



Ayrim iddaolarga ko'ra, chinakam ma'rifiy eshittirish va ko'rsatuvlarning muxlislari yengil-yelpi, ko'cha-ko'yning gapi sifatida olib chiqilayotgan ko'rsatuvlarga nisbatan ancha kam emish.

Boringki shundaydir, biroq bu teran so'z, ezgu fikr oshuftalarining hafsalasini pir qilishga asos emas-ku.

Shaxsan men ilmni boyitadigan, dunyoqarashni to'g'ri shakllantiradigan, ma'rifatni va odob-axloqni targ'ib etadigan dasturlar tarafdoriman. Bir vaqtlar Nikolay Gogol asarlarini tushunish uchun soddalashtirib nashr etishni talab qilganlarga nisbatan mashhur rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiy: "Gogolni xalq uchun soddalashtirish kerak emas, balki xalqni Gogolni anglash darajasiga olib chiqish kerak", deb javob qilgan ekan.

Reyting borasida bugun kuzatilayotgan holat kishiga shuni eslatyapti. Boshlovchilarining ilkillashi, professional formatning jo'nlashgani, qaynotakelin mavzusida axloq chegarasidan juda uzoqlab ketgan, axloqsizlik targ'ibotiga o'xshab qolayotgan ko'rsatuvlarning bemalol namoyish etilishi, suitsid mavzusi va uning namoyishi va hokazo kallavaramliklar. Nima bo'lyapti o'zi? Esimizni kim o'g'irladi?

Suitsid va inestet mavzusi hatto Yevropa va Amerika qit'asidagi aksar rivojlangan davlatlarda ham yoritilishi taqiqlangan. Biz nima qilaypmiz?

Reyting ketidan quvib "marojnani ular tishlagan joyidan" tishlab yurganimiz yo'qmi, ishqilib?

Telekanallar o'zgarishi shart, ammo o'z qadriyati, an'anasi, professionalligini yerga urish evaziga emas.

Abdulhamid MUXTOROV
Facebook

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 20 155
Shundan:
Kirill yozuvida – 8 342
Lotin yozuvida – 11 813
Media kuzatuvchilar – 44 117
Buyurtma: G – 640.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:30
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz